

SO'Z CHAMANI

Baxtiniso  
AHMUDOVA

2020/138-93

321.5/2.133

M 37

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,  
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.  
Alisher Navoiy*

---

# Baxtiniso MAHMUDOVA

---

16+

Toshkent  
«Akademnashr»  
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')6

B 37

- Özbek adabiyoti.  
ti. she'riyat.

- B 37** **Baxtiniso Mahmudova** [Matn] : g'azallar / nashrga tayyorlovchi I. Qo'chqorov, B. Otajonova. - Toshkent : Akademnashr, 2020. - 128 b.

M 37

ISBN 978-9943-6359-6-8

UO'K: 821.512.133-1


KBK: 84(5O')6

Mas'ul muharrir: **Nodir JONUZOQ**

To'plab nashrga tayyorlovchilar:

**Islomjon QO'CHQOROV,  
Bashorat OTAJONOVA**

«So'z chamani» turkum kitoblarining navbatdagi risolasi Baxtiniso Mahmudova g'azallaridan tuzildi. Ushbu rango-rang guldastra ham muhtaram she'r muhiblariga sevimli bo'lishiga ishonamiz.



1048344  
291

ISBN 978-9943-6359-6-8

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

NO.600001

# *She 'rlar*

\* \* \*

Otamning

Ko‘zidan ko‘ngliga to‘kilgan yoshman,

Onamning

Quvonchiga botgan bir xarsangtoshman.

Nega

Yuragimga yetmaydi qo‘lim,

Nega

O‘lim bilan bittadir yo‘lim?!

## ONA

Onajon, bariga lahza davodur,

G‘amlar ham almashib turar havodur,

Lek ko‘zimni cho‘qir mushtdek xavotir:

Uyg‘oq yuribmanmi oqshomlargacha?

O‘ylayman, farzandning farzlari nadir,

Onajon, gapirgin, arzlarining nadir,

Balki, darding hayot tarzlarimdadir?

O‘yim o‘lib borar jon-jonlargacha.

Oldingdag‘i qarzim to‘lay olmadim,

Hech yo‘q, armoningni yula olmadim,

Ko‘nglimga muharrir bo‘la olmadim,

Men o‘lib yashayman qachonlargacha?!

## VATAN

Men she'rday o'qidim daraxtlarini,  
Yodladim bargining xollarigacha.  
Zaminin bahor deb, dunyoni kuz deb,  
Quchdim yozlari-yu qorlarigacha.

Ko'zimni nimadir avaylab o'pdi –  
Shamol bo'sasida yondi kipriklar.  
Ikki jahonlarni tutashfiguday  
Yuragimga undan bunyod ko'priklar.

Bobomni ko'raman tog'iga qarab,  
Momomning kaftiga o'xshar hayoti.  
Uyqumga ko'chgani sira tushlarmas,  
Daladan dil tergan qushlari yodi.

Boshoqqa boylanib o'sar umrlar,  
Yulg'unday shoxlanib, rostlanar dehqon.  
Xohlasa tandirday gullaydi tuproq,  
Xohlasa yomg'irday to'kilar osmon.

Bu afsunni kimdan o'rgandi ekan?  
Nurlar to'shab borar quyosh iziga.  
Qaniydi, ko'nglimdan o'tgan vatanning  
Vatan bo'la olsam bitta hisiga.  
Qaniydi!

## **QISHLOG'IM**

Namozshom...

Pastak hovli, pastak uylar...

Tol barg to'kar arig'iga.

Poda qaytar uyur-uyur,

Katak to'lar tovug'iga.

Hayot qaynar ayni shu dam,

Satil lim-lim bo'lar sutga.

Ro'mollilar shoshib-shoshib

Sutni ilib qo'yay tutga.

Qo'rasida bir qo'zi kam,

Qishloq kezib topolmaydi.

Ana, ma'rab tinmas biri,

U bolasiz yotolmaydi.

Tandirxona tuynugidan

Quyuq tutun o'rlar ko'kka.

Yuz-qo'li chang beg'uborlar

Baland sasda tinglar dakki.

Xomush tortib qolar osmon,

(Go'yo dunyo o'ylagani.)

Yulg'un kiyib olar tag'in

Shafaqning qon ko'ylagini.

Bolasiz qo'y shamol bo'lib  
Ilhaq-ilhaq uvillaydi.  
Voh! Dayrovot daryolari  
Yuragimda shovullaydi.  
Namozshom...

## BAHORGA

Kelding. Yuzda kulging arimas,  
Lek qalbingda xavotir, tugun.  
Murojaatim – bugungi emas,  
O'tgan galgi alaming uchun  
Seni qanday yupatay, bahor?!

Chechaklarni bolangdek ko'rib,  
Chamanzorni etsang makoni.  
Kapalakni bir ko'rmay turib  
Barmoqlarda uzilsa joni,  
Seni qanday yupatay, bahor?!

Daraxtlaring nafis libosda,  
Meva tugib, yetilmagan payt –  
Kaltak yesa goh kesak, toshdan,  
“Voh, jonim!” – deb aytolmagan payt  
Seni qanday yupatay, bahor?!

“Bahor qaytdi. Yoshlik qaytmaydi,  
Muhabbat ham qaytmas, ehtimol”.  
Ozor bermay, bir so‘z aytmayin,  
Kelganingda kimgadir malol  
Seni qanday yupatay, bahor?!

Ko‘p kyununma, dunyo biri kam,  
Tashna erur barcha suyanchga.  
Lek yurakda mavjlangan alam:  
“Aslida, kuz loyiq yupanchga” –  
Seni qanday yupatay, bahor?!

## YOMG‘IR

Derazam oynasin chertadi yomg‘ir  
Xayolim o‘ziga asir etgancha.  
Tomchilar yugurib, shodon kuladi  
Havoni halinchak qilib eggancha.

Yerning g‘uborlari ortga chekinar,  
Tark etar atrofni sukut lashkari.  
Maysalar, daraxtlar kutishin bilar,  
Yoniga shoshadi diydorlashgani.

Visolning yoqimli haroratidan  
Go‘zallik ko‘z ochar tog‘-u qirda ham.

Ilhom alanga olib hayqirar  
Chanqagan dalalar duo qilgan dam.

Yo'lga chiqsam, yo'li ~ sochim orasi,  
Kokili kiprigim to'sadi og'ir.  
Zumda ishg'ol etar yer darvozasin  
Faqat yuragimga yog'magan yomg'ir.

### AZIZ INSONIM

Nedandir ko'ngil g'ash bo'lgan chog'ida,  
Besabab ko'zga yosh to'lgan chog'ida,  
Sog'inch tuzog'iga tushib gohida,  
Bir sizni eslayman, qalbi osmonim,  
Armonga aylangan aziz insonim.

Nurli xotiradan so'zlar qishda qor,  
Yodga solmay qo'ymas xazonlar bir bor,  
Ismingizni aytib gullamish bahor,  
Yurakda bitilgan o'chmas dostonim,  
Armonga aylangan aziz insonim.

Dunyo g'amilariga bosh egmay yuring,  
Shodlik diyorida qasrlar quring,  
Har zamonda meni eslab ham turing,  
Shirin tushlarimda bo'lib mehmonim,  
Armonga aylangan aziz insonim.

Yillar o'tib borar, kunlar o'zgarmas,  
Kokilimdek qaro tunlar o'zgarmas,  
Menga borligingiz o'zgarmasa bas,  
Baxtliga yor bo'ling, baxtga posbonim,  
Armonga aylangan aziz insonim.

## SOG'INCH

Sog'inch dilginamga beradi ozor,  
Yolg'izlik jonimdan o'tib ketadi.  
Yodingiz yodimga tushgani zahot  
Qalbimdagi muzlar erib bitadi.

Qalbimda gullaydi orzum g'unchasi,  
Dardlar tark etadi jismimni butkul.  
Sog'inch – yuragimning o'tli nafasi,  
Sog'inmay yashashim mushkuldan mushkul.

Aldamchi hislarga beraman imkon,  
Ovunib yashayman diydoringizga.  
Yolg'onlar xayolni aplaydi makon,  
Ishonib ketaman kelmog'ingizga.

Sog'inchning yukini boshda ko'tarib  
Xayollar qilaman qayta va qayta.  
O'ylarimning bari cheksiz ham g'arib,  
Ba'zan yarim dilni etadi nimta.

Mayli, ne bo'lsa ham, dunyoda siz bor,  
Sizga tilaklarim sara-sarasi  
Va yana sog'inib yashay umrbod,  
Sog'inmay yashashdan O'zi asrasin.

### SIZNI DEGAN

Ishonaman bu dunyoning yolg'oniga,  
Haqiqatning qo'llaridan tutolmadim.  
Sizni degan tuyg'ularning tug'yoniga  
Chek qo'ymadim, yuzni burib ketolmadim.

Ko'z yoshimga ivib ketar nolalarim,  
Armon ko'kka bo'y cho'zadi qat-qat bo'lib.  
Sizni degan yuragimning ko'ngli yarim,  
Sahrolarda qolgan guldek borar so'lib.

Sizsizlikka ko'niktirgan taqdir meni,  
Nega doim sog'inchzorga tashlab qo'yar.  
Sizni degan umidimni yoqtirdimmi,  
Tortib oldi, alam bag'rim tilib, o'yar.

Ayblamayman, ayblolmasman sizni zarra,  
Lek hijronning adog'iga yetolmasman.  
Sizni degan xayolimning qarshisida,  
Oh tortsam-da, arzim bayon etolmasman.

Ishonaman lek dunyoning rostiga ham,  
Aldovining qanotida uchib bo'ldim.  
Sizni degan kunlarimni olqishlayman,  
Sizni demas kunlarimni kechib bo'ldim.

## **TONG**

Horigan tun orom axtarib  
Orqasiga qaytmoqda arang.  
Qushlarini kaftda ko'tarib  
Uyqusidan uyg'onmoqda tong.

Sabolarin sochib boriga  
Mudroq tanga rohat baxsh etar.  
Nastarinning dudoqlariga  
Ko'z yoshini tomizib ketar.

Bu bir tongki, sof va begunoh,  
Orzulari oqqa cho'milgan.  
Kipriginning ostidan nogoh  
Quyosh chiqar, nurga ko'milgan.

Uyqusidan uyg'onmoqda tong...

## MANZARA

Osmonda jilmaygan quyosh, ehtimol,  
Visol labidagi oshiq yuragi.  
Yuz-ko'zni ayamay chertguvchi shamol –  
Aldamchi tuyg'uning noz-u firg'i.

So'lg'in xotiradek uchgan mezonlar –  
Noma'lum kimsaning darbadar dardi.  
Falak yuzin yopgan qop-qora bulut –  
Iztirob zabt etgan ko'ngildir, balki.

Bir-birin turtkilab yoqquvchi yomg'ir  
Nafrati chekingan ayrılıqdayin.  
Dilga mo'ralovchi o'tli xavotir  
Oq-oydin, kumush qor bo'lishi tayin.

\* \* \*

Mana, ketayapman sendan, nihoyat,  
Osmondan qarz olib bardoshlarini.  
Bir jilmaymoq uchun ming to'kilaman  
Berkitib ko'nglimning ko'zyoshlarini.

Do'st bo'lma kuzlarning xazoni bilan,  
Yellarga sochaver kulgularingni.  
Oqshomlari faqat yaxshi tushlar ko'r,  
Sog'inchga yo'yib qo'y tuyg'ularingni.

Bir kun Bahor bilan olib kelaman  
Senga Xizr bobo tilaklarini.  
Ungacha o'zingni ehtiyot qilgin  
Avaylab qalbimning bo'laklarini...

## KUZGA

Sen haqingda yozmay shu safar,  
Baxt soyasin ko'rdim, hamdardim.  
Sen haqingda yozsam-da agar,  
Yangilanar eski g'am-dardim.

Vaqti bo'lsa gar kelmog'ingga,  
Xayolimga kel, gaplashamiz.  
Qulqut tutgum arzi-holingga,  
Tushlarimga kir, dardlashamiz.

## BALKI...

*Shoira Halima Ahmedovaga*

Balki, bir kun shoir bo'larman,  
Ko'zlarimda she'r yig'layvergach.  
Sochlariimda o'ssa ilhomlar,  
Tillariimda so'z kuylayvergach.

Balki, bir kun shoir bo'larman,  
Dard yo'liga band qo'yilmasa.

Necha yillab suvgaga aytilmash  
Tushlar yolg'onga yo'yilmasa.

Balki, bir kun shoir bo'larman,  
Yugurgilab chiqsam ko'chaga.  
Ariqdag'i suvgaga yuvinib,  
Rayhon eksam yo'lakchalarga.

Balki, bir kun shoir bo'larman,  
Gul yuzimni qoplasa ajin.  
Qo'llarimga kirsa qaltiroq,  
Adovatlar bo'lommasa chin.

Balki, bir kun shoir bo'larman,  
Duo bersa shu ona xalqim.  
Qolmasam bas Alloh nazdidan,  
Tanglayim tark etmasa talxim.

Balki, bir kun shoir bo'larman  
Yoningizga bir kelganimda  
Yoki gungdek saqlayotganim  
Hasratlardan dod deganimda.

Balki, bir kun shoir bo'larman,  
Singigan-ku she'ringiz qonga.  
Qanday yaxshi – shoir bo'lib  
Xizmat qilish shunday makonga.

## BILMAM

Ona, bezdim men hammasidan,  
Xafa qildim har dam tengimni.  
Ajrating bu Baxtinisodan  
Darddan shilta bo‘lgan yengimni.

Kamalakdek nurlar yoyaymi  
O‘nqir-cho‘nqir taqdiringizda?  
Tutantiriq kabi yonaymi  
Quyosh bo‘lib tandiringizda?

Hech kimsa rad etmas so‘zingiz,  
Men-chi, dalli, men bir devona...  
Shu hech esi yo‘q qizingizni  
Osmonlarga uzating, ona.

Atay qo‘yib o‘zimni erkin,  
Orzu qildim baxti rasoni.  
Bilmam, lek qay holga tusharkin,  
Tashlab ketsam Baxtinisoni...

## SURAT

Bolalikda tushgan suratlarimni ko‘zdan kechirib,  
bir dam ushbu suratlarda yashagim keldi...


Ko'ngilni bezdirdi soxta maqtovlat,  
Hayotdan to'ydirdi dimog'i tog'lar,  
Bir on ko'zlaringga boqqanum chog'lar  
Men senda yashagim kelyapti, surat.

Ey sen kokillari o'rilgan qizcha,  
Chimdim g'am bilmagan yorqin yulduzcha,  
Nimalarni ko'rding menga kulguncha?  
Men senda yashagim kelyapti, surat.

Ishonib boryapman shul haqiqatga,  
Oshkor bo'lib qolgan sir haqiqatga,  
Endi qaytmayman, lek bir daqiqaga  
Men senda yashagim kelyapti, surat.

Ro'paramda turar, balki, baxt kutib,  
Biroq dard yurakdan olgandir tutib,  
O'zimdan voz kechib, o'zni unutib,  
Men senda yashagim kelyapti, surat.

Kel, xoki poyingni ko'zimga suray,  
Bag'ringdag'i qizga sabrlar tilay,  
Keyin yig'lasa ham, hozir kuldiray,  
Men senda yashagim kelyapti, surat.



## ILTIVO

Kuzgi bog'lar kabi yuribman behol,  
Dardin ko'z-ko'z qilib sollanar zamin.  
Xudojon, tilimga o'chmas cho'g'lar sol,  
Xalqim qalbidagi olov bo'layin.

Menam bir ko'ngilman dardi davosiz,  
Menam bir yuragi yarimtalardan.  
Ko'ksim uzra ko'kka chopar sadosiz  
She'rdan gullayotgan bir parcha vatan.

Xudojon, shu elning nazari baxtdir,  
Mehrga o'rab ber aytmishlarimni.  
Endi bugunimga qaytmog'im shartdir,  
Ertakka aylantir o'tmishlarimni.

\* \* \*

Kunlarim – aylana charxpak,  
O'zimni o'tkirlar charx-yurak.  
Ay, senam bilmaysan, ey falak,  
Men qaysi bahorga dil berdim?

Xazonlar ko'klamga kulgimi?  
Armonlar yo'lgimi, dilgimi?  
Bu yilgi yo o'tgan yilgimi?  
Men qaysi bahorga dil berdim?

Alamlar qo'limdan tortdilar,  
Odamlar menga tosh otdilar,  
Olamlar... ko'zda yosh... botdilar...  
Men qaysi bahorga dil berdim?

Tik qarab ko'plarga, ozlarga,  
Ko'nglimni to'ldirib rozlarga,  
Ishonmay issiqqalb yozlarga,  
Men qaysi bahorga dil berdim?

Muzlarning yuragi sovuq deb,  
Dunyosi... ko'zları yumuq deb.  
Kiygani – oq kafan, yamoq deb,  
Men qaysi bahorga dil berdim?

Qayerga ketmoqda qaldirg'och?  
Bepisand nega bu qayrag'och?  
Aytgin-a, aytgin-a, simyog'och,  
Men qaysi bahorga dil berdim?

Tiriklik qonunin buzmadim,  
Orzular yo'lini to'smadim,  
Bahorni bekitdi qismatim,  
Men qaysi bahorga dil berdim?  
Men qaysi bahorga dil berdim?

## NAJOT

*Shifokor Xoliyor Qodirovga*

Zamining ko'ziga joylashganimda  
Yuragimni tutsa qushlar ko'z yoshi,  
Mening benaf, bedod og'riqlarimdan  
Aylanib ketganda dunyoning boshi

Mezonlari menga – safarga chiqsa,  
Yodimning ko'nglida chalkashaversa.  
Daraxt odam bo'lib, sabo tilida  
Nafaslarim bilan gaplashaversa.

Dard yomg'irday yuzga to'kilganida  
Boshimni silasa Ayyub bardoshi.  
Majnuna hislardan iltifot kutib,  
G'ashlanib botganda ruhim quyoshi  
Siz yetib kelasiz orzular bilan...

\* \* \*

Men ketaman quyosh qasriga,  
Sovqotmasin yuragim toki.  
Yer aytganday, qaytmay aslimga,  
Osmonniki bo'laman boqiy.

Boshim qo'yib ertak tinglayman  
Oymomoning tizzalariga.  
Yulduzlardan nari jilmayman  
Va... ko'nikib ketgum bariga.

Shamollarga qo'shilib uchib  
Daraxtlarni uyg'otaman men  
Yo mezondek kuzakni ichib,  
Bahorimni yo'qotaman men.

Sog'inchlarim yonurmi oson,  
Chaqmoqlardek chaqnoq o'qilsam?  
Faqat qiziq: tanirmikansan,  
Yomg'ir bo'lib senga to'kilsam?

## SIZ KIM DEMANG...

Siz kim demang,  
Men – armonning o'gay qizi,  
Iztirobning kulgisidan ko'zi yoshman.  
Yuzlariga tamg'a bo'lib alam izi,  
Bir-bir nurab borayotgan sabr-u doshman.

Siz kim demang,  
Duduqlansam, kular gardun,  
Qayg'ularning kulin titar kuyuk gardim.

Dardlardan ham og'ir axir mening dardim,  
G'am kulbasin sassiz kezgan g'arib boshman.

Siz kim demang,  
Bermang menga bu savolni,  
Javob bermoq chiqar jonga ko'p maloldir.  
Izlariga mushtoq etib bir ayolni,  
O'zi xandon otib yurgan bag'ritoshman.

Siz kim demang,  
Chertmang ruhim sozlarini,  
Muzlatmang-ey yuragimning yozlarini.  
Bahorlardan bekitgancha rozlarini  
Kuzaklarga ochib qo'ygan siri foshman.

Siz kim demang,  
Rostin aytsam, hech kimmasman,  
Hech kim mendan yaxshirog'-u, past  
kelmasman.  
Qulab tushgan yiqlimasman, yiqlimasman,  
Kimligimni angolmayman, hali yoshman.  
Siz kim demang,  
Siz kim demang,  
Siz kim demang...

## RUSHANA XOLAMGA IKKI SHE'R

### 1

Ona bo'lding – qiz bo'lomadim,  
Opa bo'lding – bo'lomadim singil.  
Meni tushun, menga ishongin,  
Og'ir tortdi meni ortgan yo'l.

Nima qilay, ko'zlarim yulduz,  
Qalbim osmon bo'lishga shoshdi.  
Momom bergen xayollarimni  
Dayrovotning suvlari bosdi.

She'r o'rgandim. Ko'ngil o'rtandi  
Qavargani kabi qo'llaring.  
Bunda osmon qo'ndi qoshimga,  
Yuragimda yulduz gulladi.

Bir piyola mehringga qordim  
She'r lab ketgan tuyg'ularimni  
Va kamondan otildim ko'kka,  
Nishon to'kdi uyqularimni.

Ranjimayman, sen ham ranjima,  
Ko'pmas baxtni anglamaganlar.  
Sen-u meni qaydan tushunsin  
Qismatiga aldanmaganlar?

Menda cho'g' taft ko'rmasang cho'kma,  
Hali olov yonishlarim bor.  
Qiz bo'laman, singil bo'laman,  
Loyqalandim. Tinishlarim bor.

Jim yurmagin, o'ychan va ma'yus  
Erta haqda xayollar surib.  
Oftobdek kul, tirilib olay  
Nigohingda ko'zimni ko'rib.

## 2

Bir kun tor ko'rinsa bu yerlar,  
Oylarga ketamiz, xolajon.  
Bitta dard, bir alam, qayg'u yo'q  
Joylarga ketamiz, xolajon.

Nurlarga belaymiz nurni-da,  
Tovlanar mehrimiz nurida,  
Baxtlari oqar suv o'rnila  
Soylarga ketamiz, xolajon.

Ko'nglimiz bezimas bir ishdan  
Va omon chiqamiz har qishdan.  
Gard qo'nmas, bokira, pok ishqidan  
Boylarga ketamiz, xolajon.

Gapimni yo'y mang hech hazilga,  
Yolg'onlar yetar to'rt faslga.  
Yetgandan so'ng o'sha manzilga,  
Qaylarga ketamiz, xolajon?

\* \* \*

Yaxshiyam, dunyoda daraxt bor,  
Suyansang, bag'ridan itarmas.  
Chin dildan o'kinib yig'lasang,  
Demaydi: "Bo'ldi qil, yetar, bas!"

Yaxshiyam, dunyoda maysa bor,  
Yuz bossang, sanchmaydi nishini.  
Har kuni yo'lingni poyleydi,  
Qilmasang ham biror ishini.

Dunyoda odam ko'p, ko'p, ammo...  
Yaxshiyam, daraxt bor, maysa bor,  
Yaxshiyam...

## KUNLARIM

Kunlarim!  
Qayerga shoshyapsiz?  
Vaqtingiz ziqmi yo shunchalik?  
Bolalik chog'ingiz – tonglarning  
Hali salomiga olmadim alik.

To'xtang!  
Holingiz ne?  
Bir zum boqayin,  
Ko'zlarining yoshga to'lgan emasmi?  
Mening tog'lardayin gunohlarim deb  
Joningiz hayotdan to'ygan emasmi?

To'xtang!  
Sochingizda oqlar yo'qmikan  
Noshud, nonko'rligim oqibatidan?  
Dog'lar tushmadimi yuragingizga  
G'aflatlarning menga saxovatidan?

To'xtang!  
Armonlarsiz ketayapsizmi?  
Yelkangizga g'amilar ortmaganmisiz?  
Ko'ksimda yashaydi quyuq ko'lanka –  
Alam ko'limgiga botmaganmisiz?

Kunlarim!  
Uzrimga ko'nasizmi yo  
Poyimga yana bir xijolat to'shab?  
To'kilib boryapsiz befaryod, ma'sum  
Kallaklangan daraxt ko'ngliga o'xshab.  
Kunlarim!

## TO'KILISH BAXTI

*Shoir ukam Sherzod Ulashovga*

She'r nimadir? Yurak qo'shig'i  
Va ruhingga sig'magan sirlar.  
Qo'shiq bo'lib to'kilsin bekam  
Yuragingda yashagan she'rlar.

Oq ko'nglingni oq tonglarga ber,  
Kuylaring mast qilsin falakni.  
Tinglab-tinglab to'kilib ketay  
She'rlaringga ko'chgan yurakni...

## BOLALIK

Bolaligim ne qilmoqda,  
Qayda begard tuyg'ulari?  
Yuragimni sel qilmoqda  
Bugun sog'inch yig'ilari.

Qog'ozlardan ko'k archalar  
Ko'ksimga *gul* taqib borar.  
Qamish tanli kemachalar  
Ko'z yoshimda oqib borar.

Qadrdonim zamin qolib,  
Ko'z o'ngimga ko'chayapti.

Kiprigimga arqon solib  
Arg‘imchoqlar uchayapti.

Intizor-u muntazirdir  
Unga umrim yo‘laklari.  
Sandiqlarda mushtoq, axir,  
Qo‘g‘irchog‘im ko‘ylaklari.

Ishqida she’r bitayapman,  
Naylor chalib falaklarda.  
Uchib-uchib ketayapman  
Xayol nomli varraklarda.

Bugun shodman kechagidan,  
Mo‘jizalar bugun qaytar.  
Yuragimning burchagida  
Bolaligim ertak aytar...

## BESHTOSH

Soy bo‘yida beshtosh o‘ynardim,  
Barmoqlarim tuproq eshardi.  
Beshta toshni ko‘kka otardim,  
Beshta bo‘lib kaftga tushardi.

Shirin edi g‘oliblik ta’mi,  
Mag‘rurlansam, yer kengayardi.

Meni qutlab qo'shiq aytgani  
Ortimdan shamollar kelardi.

Bilar edim, bu zamin, dunyo  
Beshta toshday aylanardi gir.  
She'r o'qisam – gullardi samo,  
She'r o'qisam – gullardi bag'ir.

Bugun... biroz ulg'aygan bo'ldim,  
Soy bo'yida qoldi beshtoshlar.  
O'z ko'ksimga she'rday uyuldim,  
Yuragimni yoqtı otashlar.

To'rt tomonim qartaygan ilinj,  
Kamman, tafti oldi ziyodning.  
Tiriklik, ishq, baxt, dard-u sog'inch  
Beshtoshlari ekan hayotning.

Uyqum keldi bir kun (qaydanam),  
Qo'llarimda beshtosh. Uxladim.  
Uzoq yurdim, yetdim oygayam,  
Turdim. Bir toshim yo'q. Yig'ladim.

Boshim uzra shamollar yeldi,  
G'am gulladi, o'qib bersam she'r.  
Iztiroblar qaylardan keldi?  
Torayguday poyimda bu yer.

Nimamdir nim, nimamdir limdir  
Kajraftorning kosalarida.  
Beshtosh qilib o'ynardi meni  
Kimdir zohir-botin oralarida.

Ko'z o'ngimda turnalar kabi  
Yuragimdan karvonlar o'tdi.  
Xuddi yo'qday nasl-nasabi,  
Pok orzuli armonlar o'tdi.

G'amlik sari ketdim atayin,  
To'xtatolmay ko'zning yoshini.  
Endi qaydan izlab topayin  
Yo'qotilgan baxtning toshini?

Soy bo'yida beshtosh o'ynardim...

\* \* \*

Shamollar uchmoqda dardlarin sohib,  
Osmon ko'zin ochar – istagi vojib.  
Men atay qilmayman, yurmagin ranjib,  
Kechirgin, kechiksam huzurlaringga.

Daraxtlar zamindan simirmoqda qon,  
Ruhim bilan poyga o'ynamoqda jon.

Bilmayman, yo'limning bo'lari qachon?  
Kechirgin, kechiksam huzurlaringga.

Bugun yulduzlarga qilmayman havas,  
Ularga qo'lim dor, ko'zlarim qafas.  
Men tunga yarashdim, tonglarga emas,  
Kechirgin, kechiksam huzurlaringga.

Dunyoning tinsa ham armondek do'li,  
Buncha loyqa bo'ldi yurakning ko'li,  
Mendan baxt istagan ey O'zim ko'ngli,  
Kechirgin, kechiksam huzurlaringga.

\* \* \*

Dardlar keldi bulut bo'lib,  
Davo meni tushungaymu?  
Ketolmadim sukut bo'lib,  
Navo meni tushungaymu?

Dilni "do'st"ga borib aytdim,  
Alamimni yorib aytdim,  
Yuzin burdi. Horib qaytdim,  
Xato meni tushungaymu?

Ketsang, to'rt yon yo'l dedilar,  
Sendan bezgan mo'l dedilar,

Ginalarni qo'y dedilar,  
Vafo meni tushungaymu?

Ko'zlarimga tugdi tugun,  
Ertalarim keldi bugun,  
Ruhim bog'in kuzlatgan ul  
Sado meni tushungaymu?

"Xudo, – deyman ko'kka boqib, –  
Meni chaqir, boray oqib..."  
Yuragini oyda yoqib,  
Samo meni tushungaymu?

### MAKTUB

Mehr to'la ko'zingizga boqib shundoq  
Bardoshlari horib ketdi opangizning.  
Opa bo'lib nima berdim degan so'roq  
Halovatin olib ketdi opangizning.

Maftun etdi osmonning nur rastalari,  
Bekitdi ko'z, gulning baxt yo'q dastalari,  
Sizga atab yozib qo'ygan misralari  
Tushlarida qolib ketdi opangizning.

Yonda turib yetolmadi otasiga,  
Bir shirin so'z aytolmadi onasiga,

Devorida she'r gullagan xonasidan  
Dunyolari nolib ketdi opangizning.

Inson taqdir nazarida o'yin ekan,  
Yutar ekan bu o'yinda bo'yin eggan,  
Sirtda kulib, ichda yig'lash qiyin ekan,  
Holi yomon bo'lib ketdi opangizning.

Ichgan havo yuragiga botib-botmay,  
Gohi omad orqasidan chopib-chopmay,  
Uni mendek tushunuvchi darddosh topmay,  
Dard qadahi to'lib ketdi opangizning.

Kuyuk ko'ksin bekitmadi barg-xazonlar,  
Muzlarini eritmadi saratonlar,  
Alamlarin ko'rib, bilib qahratonlar  
Ahvoliga kulib ketdi opangizning.

Ayb sanamang, borolmasa yoningizga,  
Lek sherikdir chekkan har bir g'amingizga,  
Gina qilmang!  
Azizlarim, arzi sizga  
Qanolvari kuyib ketgan opangizning!

\* \* \*

*"Quyosh cho'kib ketar, ko'nglim bezovta..."*

**Halima Ahmedova**

Quyosh cho'ka boshlar, ko'nglim bezovta,  
Shafaq sari uchar bir gala qushlar.  
Notinch umidlarga boshqorong'udek  
Meni chorlayverar so'ngsiz tashvishlar.

Ko'zlarimga oqqan tunning ruhiga  
Boy berib yuribman o'zimni, nahot.  
Bir kunlik umrimni tobutga solib,  
Yelkasiga ortib sudralalar hayot.

To'rt yonim kengayib borar tobora,  
Men esa torayib, sarg'ayib, kuyib.  
Negadir ko'nglimni yupatgim kelar  
Qoraygan uqlarga boshimni qo'yib.

Goh uni o'ylayman, gohida buni,  
Chalkash xayollardan bordayin foyda.  
Qachon anglatasan o'zligimni sen,  
Ey qishloqi onam, qaydasan, qayda?

Bo'g'zimni quyundek bosar yig'ilar,  
Balki, dard men uchun eng to'g'ri xato.  
Chorasizlik ichra bir najot istab  
Oylarga qo'llimni uzatdim, ammo...

Quyosh cho'kib ketgan, ko'nglim bezovta,  
Bir dil berk qalbimga urildi, qaytdi.  
Shaffof saharlarni bag'rimga bosib,  
Qaniydi, tug'ilsam namozshom payti.

Adashgandek bo'ldim mag'rib, mashriqda,  
Sochimdek to'zg'idi tungi o'ylarim.  
Ne uchun oydanmas, mendan nolidi  
Havoda muallaq qolgan qo'llarim?

## MENDAN RANJIMA, DUNYO

*Nargiza Odinayevaga*

Osmoningda yulduz bor, yuragimda oqshomi,  
Qirg'og'ini topmagan ko'zim – daryong xiromi,  
She'rim bo'lib gullagan hayotning namozshomi,  
O'zimga o'zim g'anim, mendan ranjima, dunyo.

Kechikmasa kuzaklar, har gal yaproq to'kilgay,  
Oftob otsa, guldag'i shabnam – titroq to'kilgay,  
Mening esa ko'ksimga darddan mudroq to'kilgay,  
Ne qilay, mingdir kamim, mendan ranjima, dunyo.

Fazosin topmay turib oy ham hilol bo'larmu?  
O'zanga tushmaguncha soy ham zilol bo'larmu?  
Tuproqni anglamasdan kulol kulol bo'larmu?  
Kerak alamim, g'amim, mendan ranjima, dunyo?

Qismati yozilar mish inson tug'ilmay turib,  
Mening tug'ilgim kelmas shafaqli ufqni ko'rib,  
Qismatim har sahfidan sog'inch o'tar yugurib,  
Sen emas sog'inganim, mendan ranjima, dunyo.

Dardlar kuylab yuribman umrning bayotidan,  
Baxtli Baxtinisolar laylakning qanotida,  
Tug'ilmoqqa, tushmoqqa kimningdir hayotidan  
Hali kelmadi galim, mendan ranjima, dunyo!

\* \* \*

Sen kelasan shamollarga ismim aytib,  
Bir tabassum nigohingdan sirg'aladi.  
Men ketaman yuragimga yana qaytib,  
O'sha yo'llar... O'sha o'ylar o'zgaradi.

Menga aytgin, yuragimni gullab bergen  
Yuragingda olovso'qmoq izi bormi?  
Ko'zlarimdan baxtmi, g'am yo nadir tergan,  
Ko'zlarining to'rt yoni ham ko'ngilzormi?

Menga aytgin, kiftimga bosh qo'yib turgan  
Osmonmikan, armonmikan, azobmikan?  
Menda dunyo, daryomikan yig'lab yurgan  
Va "bolam" deb meni suygan sarobmikan?

Bir notanish orollarda qolgandayman,  
Qaytib ketsang bo'lmaydimi izlaringga?  
O'rganmayman, senlilikka o'rganmayman,  
So'zleringga ishontirma, so'zleringga.

Yo va'da ber (ko'ngling aytsin, diling aytsin):  
"Ranjitmayman, yig'latmayman, kuydirmayman.  
Agar tonsam, bedillari meni yutsin,  
Ikki dunyo mensizlikda qoldirmayman..."

Jim boqaman. Sen kelasan shamollarga  
Ismim aytib ayriganday hushlarimdan.  
Javobing elt, gar qo'ymasam malollarga,  
Musichalar sayrayotgan tushlarimdan.

### MASALA

*Matematika o'qituvchim Pirnazarovga*

Bir ko'nglimda mingdan ortiq tuyg'u bor,  
Birisı tug'ilsa, biri o'ladi.  
Shu turishda osmon kelib qo'shilsa,  
Necha bo'ladi?

Barchasi bir taraf, sog'inch bir taraf,  
Lim-lim to'lib qolsa sog'inchning jomi.  
Tuyg'ularni g'ij-g'ij g'unchalab qo'ysa,  
Karra bo'ladimi sog'inchning nomi?  
Ayrilib-ayrilib ketsa kulgular,

Qo'shilib-qo'shilib kelsa qayg'ular.  
Armonlar ayirsa orzularimdan,  
Ayirma nechaga teng bo'lar?

Men sizga javobni aytaman aniq:  
Hech bitta qarz olmay olam-borliqdan,  
Ko'nglim bo'linuvchi, dunyo bo'luvchi,  
Sog'inch bo'linmadir, o'zim qoldiqman.

\* \* \*

Ketgim kelayapti bugun negadir  
Sening g'amlar cho'kkan ko'zingga qarab.  
Tashvishni qoldirib hayot qo'lida  
Va yana bir tutam baxtni yelkalab.

Qo'llarim osmonga yetar-u, ammo  
Bir bora boshingni silaganim yo'q.  
Qayg'u kelsa, mendan oldin qulading,  
Shunda ham sen uchun yig'laganim yo'q.

Men seni baribir yaxshi ko'raman,  
Garchi yon bossam-da cho'g' aqlim tomon.  
Netay, og'iroyoq, bedod dardlarga  
Doya bo'laverib charchadim yomon.

Ko'ngiljon!  
Alamdan toldi tuyg'ular,  
Do'l tegib chaqmoqqa urildi bag'ir.  
Sening g'ammlar cho'kkan ko'zingga qarab  
Ketgim kelayapti bugun negadir.

\* \* \*

*Jijanim Vaziraga*

Sayr qilging keladi men bilan uzoq  
Aylanib Olmazor ko'chalarini.  
Tushungin, ba'zida bo'lmaydi holim,  
Artolmay qolaman dil changlarini.

Netay, keng qishloqqa sig'mas bir jonim,  
Garchi izlarim bor tuproqlarida.  
Beg'am qizaloqni ko'raman bugun  
Suvga egilgan tol yaproqlarida.

"Charchamadingizmi?" – deysan goh-gohi,  
Isyon boshlanadi horg'in tanimda.  
Qo'ygin, yo'l charchog'i nima bo'libdi  
Hayot dardlaridan charchaganimda.

Kimdir aravasin o'tadi sudrab,  
Yana kim yelkaga yulg'unni ortib.

Mening esa ruhim cho'kib boradi  
Meni eslolmagan dillarga boqib.

Allaqanday g'ashlik va ilinj ichra  
Dayrovot tomonga qadayman ko'zni.  
Nigohim-la ming bor kezaman, ammo  
Baribir, topmayman huv o'sha qizni.

To'zg'igan xayolim nogoh band etar  
Maktab yo'lidagi qator sevinchlar.  
Ariq bo'yidagi tutga osilib  
Halinchak uchadi ko'm-ko'k sog'inchlar.

Jilmayib qo'yaman. Yurak bezovta,  
Bir nurab oladi armonning uyi.  
Bu cheksiz yo'llarda, tengsiz yo'llarda  
Meni yeb bitirar ertaning o'yi.  
Sayr qilging keladi...

## **ALAM QILMAYDIMI?**

Unutilgan tushdek borsam gohi sizga,  
Alangalar qo'ymaymanmi ohingizga?  
Yanglish kirib xayol degan bog'ingizga  
Rayhon bo'lsam, sizga alam qilmaydimi?

Yomg'irdayin ko'ksingizga boshim qo'ysam,  
Quyosh yanglig' poyingizga nurim so'ysam,  
Ko'nglingizning otashidan yonib-kuysam –  
Payhon bo'lsam, sizga alam qilmaydimi?

Ko'changizdan o'tib ketsam mezon kabi,  
Yelkangizga uchib qo'nsam xazon kabi,  
Sizni bilib bir o'zimga mezbon kabi,  
Mehmon bo'lsam, sizga alam qilmaydimi?

Tinganida ishqning loyqa ko'lmlari,  
Duch keltirsa tor dunyoning yo'laklari,  
Sizni ta'qib qilsa qalbim bo'laklari,  
Hijron bo'lsam, sizga alam qilmaydimi?

Men bir g'arib, firoqlarni malol olgan,  
Jussalari hayot demish darddan tolgan,  
Yillar o'tib ko'zingizga cho'kib qolgan  
Armon bo'lsam, sizga alam qilmaydimi?

## HAMMASINI BILAMAN

Azob botar ko'ksima, armonlarim o'qmidi?  
Olisda yurgan bilan onam ko'ngli to'qmidi?  
Otamning mendan boshqa o'ylar o'yi yo'qmidi?  
Ko'nglim yerdek aylana, hammasini bilaman.

Iztirobni uchirmas shamollar yelgan bilan,  
Orzuni terib bo'lmas kiprikni tergan bilan,  
Nega gullay olmayman bahorlar kelgan bilan?  
Menga ertak so'ylama, hammasini bilaman.

Ko'zimga cho'kib **qoldi** bir yurakning dog'lari,  
Qalbimni soqov qildi soqov tunning "oh"lari,  
Yelkarndan bosib turar kimningdir gunohlari,  
Bilmaydi deb o'ylama, hammasini bilaman.

Darddan suv ichib yotgan oy, quyoshim ko'p mening,  
Alamdan eti qotgan sabr-u doshim ko'p mening,  
Qirq g'amdan ildiz otgan chaqir toshim ko'p mening,  
Yuragimga bo'ylama, hammasini bilaman.

Tutanturiq dil bo'ldi, shamingni yoqolmading,  
Baxtga eshik ochding-u, hijronga yopolmading,  
Ne uchun shu kungacha o'zingni topolmading?  
Baxtinisom, yig'lama, hammasini bilaman.

## NOYABR

Xazonrezgi... Bargrezon bog'lar...  
Kuz ko'zida to'lg'onar sabr.  
Ruh bahorga intilgan chog'lar  
Ta'qib qilar meni noyabr.

Yomg'ir isi kelat havodan,  
Mezonlarning sochi jingalak.  
Qovoq uyar menga samodan  
Qushlaridan ayrilgan falak.

U bor edi, u noyabrda,  
Xotiramni sog'inch bo'yoqlar.  
Menga bunday armon-kabirda  
Endi yotdir u ketgan yoqlar.

Xazonrezgi... Besas-u beun,  
U ham meni sog'ingan, balkim.  
Gumonlardan qutulmoq uchun  
Noyabrga aylangin, qalbim!

\* \* \*

Ketayapman ufqqa qarab, ruh bemador, dil g'arib,  
Tegirmomonning toshlariday aylanadi jon horib,  
Nigohlarni yayov kezdim, topolmadim axtarib,  
Hayot! Bir juft ko'z topib ber to'yib-to'yib yig'lagan.

Yuragimga payvand etay ul ko'zlardan shox olib,  
Gullab beray yig'isidan, tashvish qolsin yo'qolib,  
Kiprigining tolalari tanish hislar yoqalab  
Botib ketsin menga oydek nurlarini yig'magan.

Ketayapman ufqqa qarab tovonim pasti bilan,  
Uyg'onolmay to'lg'onaman yaldoning dasti bilan,  
Men ahvoli "voy"aman, chinordek basti bilan  
Kaftlarining chizig'idan boshqa joyga sig'magan.  
Hayot! Bir juft ko'z topib ber to'yib-to'yib yig'lagan...

## EPKIN

Tunlarning kokili oqarmay  
Ko'ksimda armonlar qoraydi.  
Bir seni yodidan chiqarmay  
Ko'nglimning *yuragi* qonaydi.

Osmonga tik boqar, yulduzlar  
Qo'llari yetmagan ko'zingmi?  
Atayin qilganday kunduzlar  
Yashirib yurasan ko'zingni.

Afsuski, barchasi endi tush,  
Lek g'amlar o'ngimda so'ylaydi.  
Qandaydir baxtlardan mast, sarxush  
Daraxtlar sasingda kuylaydi.

Ehtimol, shu sabab bedorman,  
Zamindan ayro ham bo'lolmay.  
Shamollar qo'ynida xor-zorman,  
Ruhimni qaytarib ololmay.

Men bu dam telba ishq vakili,  
Sen tomon suqlanib boqdim jim.  
Tonglarning qoraymay kokili,  
Sog'inchim umridek oqardim.

\* \* \*

Dunyoning faromush rangidek  
Ko'zingga bemandor yiqilsam.  
Ko'nglingga tushsam-u zaminda  
Bedarak yo'qolsam, yo'qolsam.

Yerda ham yo'q bo'lsam, ko'kda ham,  
Mezonlar izlasa izimni.  
Topolmay bir kuni nogahon  
Ovozingda ko'rsa ko'zimni.

Men esa beparvo, behadik,  
Sitilgan munchoqdek sochilsam.  
Qalbingning ming bitta ko'shkiga  
Munaqqash umidli toj ilsam.

Sayr etsam sen aro, sen aro,  
Qulatsam g'amingning qoyasin.  
Sochim-la supurib tashlasam  
Uzilgan qayg'uning poyasin.

Nafasing tinglasam entikib,  
To'lqindek qalqiblar tushsaydim.  
Tirasam yomg'irda qolgandek,  
Ninachi bo'lib so'ng uchsaydim.

Uchsaydim, uchsaydim surur-la,  
Qanotim kuydirsa tuyg'uing.  
Shirin tush bo'lolsam har nafas,  
Meni chorlayversa uyquying.

Har kuni har turli nur sochsam  
Ajib bir notanish yulduzdek  
Va mahkam o'rashsam taxtimga  
Shu yerda tug'ilgan ildizdek.

Singiblar ketsaydim bag'ringga  
Adashgan sabolar misoli.  
Oyoqning uchida yugursam  
Cho'chitib yubormay visolni.

Ko'zimda ko'z ochgan shabnam-la  
Ko'ksingni oq tongga belasam.  
Sen baxtli bo'lsang-u, quvonchdan  
Men to'yib yig'lasam, yig'lasam...

Kirsam-u... Adashsam, ko'nglingda  
Va izsiz yo'qolsam, yo'qolsam...

## O'ZIMGA QAYTIB

O'zim xafa qildim o'zimni yana,  
Umidim ko'ziga boqolmadim tik.  
Ming yil bo'lgan edi g'am ketganiga,  
Go'yoki u sira yo'qolmagandek.

Qayg'uning tig'lari qo'ymadidi omon,  
Jonimni ezg'ilar dudoqlarida.  
Dardlangan orzular yotar bezabon  
Vayron yuragimning yotoqlarida.

O'zim xafa qildim o'zimni yana,  
Armonni yig'latdim ko'z yoshim bilan.  
Yo'q-yo'q, bu kunlar hech o'tmaydi, ona,  
Qumdek to'zg'i yotgan bardoshim bilan.

Men kimman?  
Men kimman?  
Aslida, kimman?  
Bo'g'zimga botadi savol og'rig'i.

Balki, samolarga singmas tutunman,  
O'zidan o'zgaga yetmas dovrug'i.  
O'zim xafa qildim o'zimni yana,  
Bebaho vaqtimni xayolga sochdim.

Ruhim chorbog'lari qovjirar damda  
Sersuv ilinjimni alamga ochdim.  
Dunyo iztirobga to'lib-toshmasdan  
Majruh azobimga mahzunlik indi.

Yorug' yo'llar tomon boring shoshmasdan,  
Siz sari men o'zdan ketaman endi.

## DUNYONING...

Bir olovman muzlarning ichida ham yonguvchi,  
Sahrodirman qaynagan buloqlardan tonguvchi,  
Bir bag'ri but bormikan dunda abad qolguvchi?  
Sirlardan bo'ldim ogoh, shartlariga ko'nmayman.

Ufqqa dil yayov borar kunlarga shom belatib,  
Kuzakka do'st tutinar xazonlarni yayratib,  
Yig'lasam yig'labman-da zil ko'ksimni tebratib,  
O'zimdan arazlab goh shartlariga ko'nmayman.

Ketayapman Xizrning yam-yashil yo'llaridan,  
Qayg'ular bo'rtib chiqdi o'ngim-u so'llarimdan,  
Aybdor qildim. Nolidim kalta deb qo'llarimdan,  
Poklashim kerak gunoh, shartlariga ko'nmayman.

Kimsasizlik ichra ham imkon topar izlagan,  
Tilimga uchuq toshsin dard haqida so'zlagan,

Bir menmi yo'l yarmida bo'tadayin bo'zlagan?  
Sipqorsam ham ming bir oh, shartlariga ko'nmayman.

Yo uning so'zi bilan shafaq yanglig' botaymi,  
Tun chodirin yoya-yu oq tong kabi otmaymi?  
Poyida sim-sim ho'ngrar, yurak meni sotmaydi,  
Bot-ku mana shul panoh, shartlariga ko'nmayman.

Qanotim kuygan emish, men qanotsiz uchaman,  
Singan bo'lsa ildizim, men ildizdan kechaman,  
Ko'karaman zamindan, o'zdan boda ichaman,  
Gullar menga xayrixoh, shartlariga ko'nmayman.

Ko'ryapsanmi, kuz, do'stim, jom ko'z yoshga to'libdi,  
Kecha barq ochilganlar bugun xasday so'libdi,  
Sulton ko'nglim oldida bu dunyo kim bo'libdi?  
Meni yomon desin xoh, shartlariga ko'nmayman.

\* \* \*

Men hozir gullayman, Atirgul!  
Men hozir yonaman, Alanga!  
Men hali o'lmayman, Azroil!  
Men hozir to'laman olamga.

Qochib tur yo'limdan, ey Dunyo!  
Baribir, ko'nglimdek kengmassan.

Aytmishing, bitmishing bir ro'yo,  
Kel desam, ko'ksimga kelmassan.

Kuyingdan sarxushman, Soqiyo!  
Sendan-da telbaman, Devona!  
Seningsiz tuzaldim, Mo'miyo!  
Battarman sendan-da, Armona!

Men hozir yechaman ko'zimdan,  
Men hozir... daryoli libosni.  
Men hozir ketaman o'zimdan,  
Men hozir she'r yozdim, she'r yozdim.  
Men hozir...

\* \* \*

Yaxshiman, shunchalik yaxshiman,  
Zamindek poyonsiz mehrim bor.  
Orzuga tutganman qo'limni,  
Huuv yoqda armon ham umidvor.

Tong bo'ldim tunlarning bag'rida,  
Hayotga so'z demay cho'kdim tiz.  
Yaxshiman, shunchalar yaxshiman,  
Chunki siz ko'nglimsiz, ko'nglimsiz...

## SURATGA

(Kech kuzakda *loy ko'chamizda*  
*yirtiq kalishda tushgan bolalikdag'i*  
*suratimda allaqanday sehr bor*)

Sen kimsan

Yo nesan?

Bilolmam aslo,

Qog'ozmi, yurakmi yo yarim ko'ngil?

Qandaydir sirlisan, nigohing tanish,

Kimimgadir o'xshar manov loyli yo'l.

Shu qadar yaqinsan, shu qadar olis,

Ruhim sahifasin titaveraman.

Senga eltar yo'lga xarita topmay,

Men yana adashib ketaveraman.

Bargida osmonni ko'targan daraxt

Kemtik bag'ir – kuzga bo'lganmi malham?

Xazonlar qo'ynida nolasizmi-yey

Aravasiz qolgan g'ildiraging ham.

Bari... Kechagidek yodimda bari,

Mana, sen guvohlik berib turibsan.

Ko'zim o'ngida-yu qalbim qo'rida

Hech nesiz malika bo'lib yuribsan.

Men kimman?  
Hamma narsali faqir,  
Eng dardlisi bo'ldim baxtlar ichida.  
Armonlar opamday, akamday g'amlar,  
Eng baxtlisi bo'ldim dardlar ichida.

Senga parvo qilmas, meni tushunmas  
Yuragi qashshog'-u ro'zg'ori boylar.  
Bugun sof ko'nglimni egallab oldi  
Yirtiq kalishingga yopishgan loylar.

\* \* \*

Ko'nglimda baxtlar bor, dardlar bor,  
Goh kuyuk, goh quyuq gardlar bor,  
Istagi novojib shartlar bor,  
Qarshimda bo'yini egmaganin,  
Zarpechak, nozbo'yga tegmaganin.

G'amim bor qamrovi sen kabi,  
Kamim bor birovli, sen kabi,  
Ko'zimda oqyapman sel kabi,  
Kel menga, qayg'umni chirmaganin,  
Zarpechak, nozbo'yga tegmaganin.

Bu umr, bu hayot bir tushdir,  
Vujudim na qattiq, na bo'shdir,  
Ketmoqmas, kelmoqlik yumushdir,

Dunyoga ozorlar ekmagin,  
Zarpechak, nozbo'yga tegmagan.

Gul tugul, yurakning fasli bor,  
O'n sakkiz bahordan asli bor,  
Ko'ksimda nozbo'yning isi bor,  
Mast bo'lgin, quvnagin, o'ynagin,  
Zarpechak, nozbo'yga tegmagan.

### **DILNOZAGA**

Oydin tunda oy dog'idek ko'nglim qora,  
Dilnoz, g'amdan to'kilyapman nurdek, qara,  
Gazaklangan sog'inchimning sochin tara,  
Ovozlaring sizib chiqib barmog'imdan.

Jannatlardan qaytdim, bir she'r qildi xumor,  
Ko'z tegmasin deb dardimga taqdim tumor,  
Kun va tunning orasida yuragim bor,  
Dilnoz, oppoq shafaq oqdi qarog'imdan.

Men boqmasam, kim boqadi dil holiga,  
Kim qo'l silkir qarab janub-shimoliga?  
Yig'lab berdim bir notanish chumoliga,  
Mehr topmay yaqindagi yirog'imdan.

Ne qilamiz bunday qalbsiz kermalarni,  
Yuzi silliq, yuraklari burmalarni?  
Qanotimga olay desam turnalarni,  
Ko'rmaysanmi, moy aribdi chirog'imdan.

Sariq zarga yetolmadim sabrim bilan,  
Charxga kuldim ko'zimdagи shartim bilan,  
Bir haftada sakkiz kun bor dardim bilan,  
Dilnoz, chalg'ib ketayapman sanog'imdan.

Yuragimni sen yoqlarga osayapman,  
Dilnoz, tushun, men sabrdan ozayapman,  
Baxtiniso qizni qayta yasayapman  
Har nafasda to'zg'i yotgan tuprog'imdan.

### YOMG'IRJON

Sog'inch ko'zlarimga ochmoqda bag'ir,  
Kimni sog'indim-a, kimni?  
Bilmasam.  
Yuragim bir og'ir, bir og'ir,  
Yomg'irjon, maylimi men ham yig'lasam?

Tuproqqa yuz bosib tog' yig'lamoqda,  
Daraxtlarin quchib bog' yig'lamoqda,  
Oyning yuzidagi dog' yig'lamoqda,  
Yomg'irjon, maylimi men ham yig'lasam?

Onam – qo'limdag'i eng so'nggi bahor,  
Yuragim otamning duosiga zor,  
Osmoningdan ulkan hasratlarim bor,  
Yomg'irjon, maylimi men ham yig'lasam?

Dardning kaftlarida katta bo'lganman,  
Gohi kamayganman, gohi to'lganman,  
Kimga hayotman-u kimga o'lganman,  
Yomg'irjon, maylimi men ham yig'lasam?

Ruhim og'riqlarni takror bilyapti,  
Iztirobim shamol bo'lib yelyapti,  
Bo'g'zimga dunyolar toshib kelyapti,  
Yomg'irjon, maylimi men ham yig'lasam?

Yurakka og'irlilik qilayapti g'am,  
Yomg'irjon, maylimi yig'lasam men ham?  
Ko'z yoshlarim qasos oladi undan,  
Xo'p dema, iltimos, xo'p dema.

## ILTIVO

Kuzgi bog'lar kabi yuribman behol,  
Dardin ko'z-ko'z qilib sollanar zamin.  
Xudojon, tilimga o'chmas cho'g'lar sol,  
Xalqim qalbidagi olov bo'layin.

Menam bir ko'ngilman dardi davosiz,  
Menam bir yuragi yarimtalardan.  
Ko'ksim uzra ko'kka chopar sadosiz  
She'rdan gullayotgan bir parcha vatan.

Xudojon, shu elning nazari baxtdir,  
Mehrga o'rab ber aytmishlarimni.  
Endi bugunimga qaytmog'im shartdir,  
Ertakka aylantir o'tmishtlarimni.

\* \* \*

Omonmisan, baxtiyormisan,  
Parvozlarining hanuz o'ktamdir?!  
Mudom titrar edi, qarasam,  
Qanotlaring gullab ketgandir?!

Hanuz ozod bo'lsang bo'lgani!  
Umring olib uchaver sarxush,  
Yuragimga kelib qo'ngan-u  
Ko'zlarimdan uchib ketgan qush!

\* \* \*

Ertaroq qayt,  
Qaytaring bo'lsa,  
Shamollar ham topdi-ku qo'nim.

Sokin tortib qoldi yaproqlar,  
Daraxtlarni qo'rqitmas o'lim.

O, bu qushlar buncha xotirjam!  
Bunchalar tinch oqadi soylar.  
Na to'lqin bor, na-da bitta mavj  
Yo uyquga ketdimi ular?!

Sen qaylarda yuribsan tentib?  
Qayerlarda olayapsan tin?  
Tushunsang-chi, dunyoga malol  
Mening g'amgin bezovtaligim!  
Ertaroq qayt...

\* \* \*

*Akam Xoliyor Safarovga*

Yillar kelar umr bilan qo'ltiqlashib,  
Folga tushmas asrorlari ketib borar.  
Umidlari ostonada yo'l tiklashib,  
Minor qurar. Devorlari ketib borar.

Dard manguday ishqning ko'z-u qoshlarida,  
Bir telbani kuydirar quyoshlarida.  
Lek u mastning ko'zdan oqqan yoshlarida  
Qalqib-qalqib mozorlari ketib borar.

“Yasholmayman endi yorsiz tirik bo‘lib!” –  
Oshiq yonar olovlargacha sherik bo‘lib,  
Kuni kelsa, daryo-daryo chirik bo‘lib,  
Dunyo-dunyo qarorlari ketib borar.

Bo‘zto‘rg‘aylar bo‘zlab-bo‘zlab kelaverar,  
Chumchuq chinni ko‘zlab-ko‘zlab kelaverar,  
Qarg‘a qarib, muzlab-muzlab kelaverar,  
Dili cho‘kkan chinorlari ketib borar.

Yuki og‘ir karvon bo‘lmoq oson emas,  
Arzondir-u, armon bo‘lmoq oson emas,  
Aql ruhga sarbon bo‘lmoq oson emas,  
O‘zdin oldin iqrorlari ketib borar.

Baxt rastasi. Kim berida, kim narida,  
G‘am xaridi – kun yuzida, tun qa’rida,  
Nurdan qadoq tilanchining qo‘llarida  
“Ob qoling!” deb bozorlari ketib borar.

Tiriklik – don chumolining og‘zidagi,  
Yashamoq – oy zil yurakning bo‘g‘zidagi,  
Yarmi zulmat, yarmi ziyo ko‘ksidagi  
Kuzning rangin iforlari ketib borar.

Tan olmasa xazonlarni ko‘klam bog‘i,  
Somon tusda yuzlariga qo‘nar dog‘i,

Sochda qirov, barmoqlarda aso chog'i  
Egik qadda inkorlari ketib borar.

Ko'nglim qushday g'uborlarga uchib borar,  
Gulchehrali ozorlarga ko'chib borar,  
Haqqa hurlar diyorini kechib borar,  
Aka, qarang, meni shoir qilaman deb  
Yo'lagimning bahorlari ketib borar.  
Yuragimning ohorlari ketib borar.

Yillar kelar umr bilan qo'ltiqlashib...

### MEN BILANSAN!

Men bilansan,  
Kunlarimda ohor bordir,  
Ohang bordir,  
Kuzlarimda bahor bordir,  
Ko'zlarimda muruvvat bor va zot bordir,  
Men bilansan!

Muhabbat bor, muzlarimga olov bergay,  
Olam bergay,  
So'zlarimga oro bergay.  
Bir yig'lasam, yupatguvchi birov bergay,  
Men bilansan!

Osmonlarda faqatgina qushlar qolmish,  
Goh zaminiy, goh samoviy kuchlar qolmish,  
Yulduz sanab... tushlarimda tushlar qolmish...  
Men bilansan!

Yuragimga yuragini to'kdi shomlar,  
To'ldi shomlar,  
Daryolarga cho'kdi shomlar,  
Meni olib ketgunicha namozshomlar  
Men bilansan,  
Men bilansan,  
Men bilansan!

\* \* \*

Bu shamollar tinim bilmaydi,  
Bu shamollar, erka shamollar.  
To'rt faslida yursa ham daydib,  
Adirlari olmas malollar.

O, men shamol edim bir paytlar,  
Qirlarida sapchib o'ynagan.  
Kuyim o'sdi... Ko'paydi dardlar  
Va... o'ylaganim-o'ylagan.

Dunyolarim oddiydan oddiy,  
Men ham malol bilmasman, netdim?

Sen ham bitta erka shamolday  
Yuragimda esding-u ketding.

### ...DAN SONG

Betartib, kimsasiz qolgan xonamda  
Oqlangan devorlar yuradi izg'ib.  
Bu bo'm-bo'sh qadahlar shovqinni ichgan,  
Kechikkan taomlar turar ichikib.

Deraza suyanib darpardalarga,  
Omonlar haqida aytadi qo'shiq.  
Oppoq devorlarning qarshisida jim  
O'zini oqlolmay yig'laydi eshik.

\* \* \*

Sendan ketdim...  
Izimni yomg'irlar o'chirib ketdi.  
Qalbimda bir sovuq bo'ron turdi-yu  
Onam ro'molini uchirib ketdi.

Vaqt – darmon debdilar, ammo sezmadim  
Yoki safariga qilmadim toqat.  
Mana, hayotligim bildirar hamon  
Mening chap ko'ksimda zanglagan soat.

Goho ezgin hislar etganida band,  
Goh ko'ngil bo'lganda vujudga beshik  
Va shunday og'rinib ortimga boqsam,  
Meni chorlamagin, bekilgan eshik!

\*\*\*

Agarda qaytmasam...  
Kuzgi bog'larga  
Bir nasim bo'laman, chekinar og'riq.  
Ko'zimning oldida yuksalasan sen,  
Ko'zimning oldida ulg'ayar borliq.

Men singib boraman maysaga, yerga,  
Qayg'ular ko'ksimni toptamas bevaqt.  
Mening yuragimda chayqalar dunyo,  
Mening ovozimda chuchkirar daraxt.

Agarda qaytmasam,  
Qaytolmasam men,  
Yana jim ketaman nurafshon bo'lib.  
Bir ichkin nolada, ezgin nolada  
Ko'zlarim qaytadi namozshom bo'lib.

\* \* \*

Nastarinlar gulini to'ksa,  
G'am chekasan: "Hayot beshafqat!"

Daraxtlarga qaraysan o'ksib,  
Yuragimga boqmagin faqat.

Axir, kunning botishi tayin,  
Oftobida yashab qol bir dam.  
Onam, darding qanday olayin,  
Gullamasdan to'kilgan bo'lsam?!

\* \* \*

Bir go'zal qo'shiqlar kuylagim kelar,  
Nigohları so'lim, ohangi sokin.  
Lek singib qo'ygandir menga shamollar,  
Yuragimda shovqin, ruhimda shovqin.

Bu ilhaq ovozlar kimlarning ismi?  
Hayot qaysi dildan chalayapti bong?  
Haddidan o'tolmay, kunlarimgamas,  
Tushlarimga shoshib kirayapti tong.

Men ham shoshayapman betoqat, beso'z,  
Qadamin tezlatar ko'zimdagi yosh.  
Faqat... ketmasa-yu bog'lardan bahor,  
Botgani shoshmasa bo'ldiydi quyosh.

Turnalar qaytadi, ha, ular qaytar,  
Kelarim, ketarim bir yo'l mening ham.

Seni o'z holingcha ko'rmasin dunyo,  
Yuzingni bekitgin, bekit, peshonam.

Bir go'zal qo'shiqlar kuylagim kelar...

\* \* \*

Men saharman, men shomman,  
Men bahorman, men kuzman.  
O'pkalama, ranjima  
Goh kecha, goh kunduzdan.

Lahzalar shunday g'amgin,  
Lahzalar shunday shodon.  
Fasllar horg'in-horg'in,  
O'ychan-o'ychan to'rt tomon.

Ufqlaringga tikilsam,  
Ko'zlarim yoshlanadi.  
"Yashash mumkin joy bormi?!"  
Yuragim foshlanadi.

Ko'zlariningdan aylanay,  
Jonim mening muhabbat.  
Yig'imda sarson kezgan  
Holim mening muhabbat.

Qismatning ohangiga  
Oson tushib bo'lmaydi.  
Janglar ketsa, ruhingga  
Og'u qo'shib bo'lmaydi.

Muhabbat, jon muhabbat,  
Dunyoyim to'la tilsim.  
O'pkalama, ranjima,  
Sendan oldin yiqilsam.

Otam turgan tomonlar,  
Onam yurgan dovonlar  
Menga olis ko'rinar,  
Menga ojiz ko'rinar.

Kiftlari to'la baxtlar,  
Kaftlari to'la naqdlar.  
Menga hissiz tuyular,  
Menga izesiz tuyular.

O'zimga kelgan ko'nglim,  
O'zimdan kelgan ko'nglim  
Senga qadar ketganday,  
Mangu badar ketganday.

Ko'zlaringdan aylanay,  
Jonim mening muhabbat.

Og'riqlarim, shonlarim,  
Borim mening muhabbat.

O'pkalama, ranjima...

\* \* \*

Rangin tushlar ko'ring, azizim,  
Rangin bo'lzin dunyolaringiz.  
Menikidir oq va qoralar,  
Menikidir endi yodingiz.

Endi menman xatodan ado,  
Endi men eng toza jazoman.  
Siz ranjimang, tushuning, axir,  
Men baxt emas, Baxtinisoman.

Goh bezdirsa oq-u qoralar,  
Dil yig'lasa mendan narida,  
Rangin qo'shiq kuylasangiz bas  
Yuragimning qiblalarida.

\* \* \*

Mayli, bo'lganicha bo'lsin hammasi,  
Betartib ko'nglimni o'rghanib oldim.  
Ne bo'pti, quyoshga tik qarolmasam?  
Dunyoni o'zgartmay, o'zgarib oldim.

Ko'zimga ilinib o'tdi yomg'irlar,  
Ko'nglimga ko'riniib o'tdi yomg'irlar,  
Tilinib, urinib o'tdi yomg'irlar,  
Bulutlar turtmadi – seskanib oldim.

Ayni kuz. Poyimga yiqlidi xazon –  
Daraxtlar zaminga etdimi ehson?  
Bari nomukammal va bari oson,  
Yig'imda tinglanib, to'planib oldim.

Mayli, bo'lganicha bo'lsin hammasi,  
Betartib ko'nglimni o'rganib oldim...

\* \* \*

Ishqim bo'lak, ishqim o'zi safar, illo,  
Jim qo'shilgay Xudo degan nidolarga.  
Meni ko'rsat, mendan joy ber, meni yo'lla  
Ovozingning ortidagi dunyolarga...

\* \* \*

Sen ketgan yo'llarga to'yib qarayman,  
Xotirjam qarayman, yuraklarim nam:  
«Axir, har lahzani yashamoq mumkin  
Ko'hna ko'ngildagi ko'hna ishqda ham».  
Qarayman, hammasi o'z hududida,  
Hech nega kerakmas tasalli, dalda.

Faqat... shu holimda shu nigohlarim  
Yodingga surinib ketmasa bo'ldi.

\* \* \*

Men bariga ko'ndim...  
Oydin fasllar  
Ko'zimga ajinlar solib o'tadi.  
Nechun  
bir dil istab  
boshimni qo'ysam,  
Tunning yelkalari tolib o'tadi?!

Men bariga ko'ndim.  
Eshik ochilar.  
Men intiq shamollar kelmaydi kirib.  
Garchi ostonamda gullar qadamlar,  
Garchi tomonlarni olaman terib.

Men bariga ko'ndim,  
Hammasi yaxshi,  
Hammasi joyida,  
G'am yo'q g'amimnga.  
Faqatgina yuragim behuzur, beshon,  
Ming yilki ko'nikmas ko'nikkanimga.  
Men bariga ko'ndim...

\* \* \*

Shunday sog'indimki bugun barini!  
Sog'indim tosh o'pgan yo'llarni biram!  
Hech kimdan bekitmay hayratlarini  
Daryo-daryo oqqan shamollarni ham.

Shovullab borsaydim bariga bardam,  
Shovullab chiqsaydi sog'inchim qirga.  
Gulday hislarimdan ehson qilardim  
Gul xayr etmagan gulxayrilarga...

## IJOD

Bu yillar shunchaki meniki emas,  
Kimningdir ko'ngli bor bahorlarida.  
Bitta ishq taftida kuyib gul bo'lgan –  
Kimning kuzi uyg'oq izhorlarida.

Sochimni tortqilar besar shamollar,  
Shom botgan nigohda men ham bordayman.  
Azizim, dunyoning dunyosini ko'r,  
Ko'nglin olmoqlikdan umidvordayman.

Yo'llarda daraxtday tizilar armon,  
Qushday uchib o'tar gunoh soyasi.  
Ey dil! Ko'karmakni qaydan o'rganding,  
Bulut bo'lib tursa orzu doyasi?

Men ham yurakliklar qo'ygan elchiman,  
(Garchi yaproqligim tan olgim kelmas.)  
Kimningdir ko'ngli bor bahorlarimda,  
Bu yillar shunchaki meniki emas...

\* \* \*

Men Xizrga sado bersam,  
Tushlarimga kirdi pirlar.  
Quyoshga-da yon bosmadi  
Barmoqlarim kesgan nurlar.

Osmomonning ham bor ekanmi  
Zohirlari, botinlari?  
Ko'zlarimdan oqib tushdi  
Oq ko'nglining yomg'irlari.

Xazonrezdan o'tlar ketdi  
Yuragimning daryosiga.  
Borliq bergen nomday to'g'ri,  
Ishonmayman xatosiga:

Menda haqqing borday, Dunyo!  
Menda haqqing borday, Dunyo!

## **YURAK**

Nega dovdiraysan, ko'ksimdag'i gul?  
Nega chalkashasan tuyg'ularimdan?  
Har bir savobimni to'g'nog'ich qilib,  
Marjon tizmaysanmi orzularimdan?!

Kelar ko'klamlarga dil ochdim qancha,  
Shudringni ko'zimdan to'kib yubordim.  
«Senga to'zim bersin, matonat bersin» –  
Sukut zabonida Haqqa yolvordim.

Bargrezon... Mezonlar menga-da emas,  
Bu xazon ko'nglingga yaqin, bilaman.  
Sen tushun, har to'rtta faslda ham men  
Faqat... faqat shamol bo'lib yelaman

Va yana yonaman samandar yanglig',  
Huvaydo qismatim o'tida ranjday.  
Junun dashtlarida daydigan ruhim  
Menga sog'inchlardan tutqazadi may.

Shabboda yodimni qo'liga olib  
Moviy ufq tomonga boshlaganda yo'l  
Nega chalkashasan tuyg'ularimdan?  
Nega dovdiraysan, ko'ksimdag'i gul?

## VA'DA

Endi yig'lamayman, ona,  
Yuragimni g'amga berib.  
Shundog'am pok orzularim  
Ko'z yoshimda ketdi erib.

Endi yig'lamayman, ona,  
Qayg'u yurtdan qaytib kelgum.  
Men o'zimni telbalarcha  
Qandoq bo'lsam shundoq sevgum.

Endi yig'lamayman, ona,  
Iztirobnинг bandi sinsin.  
Bir kunda bir yig'latolmay  
Alamlarga alam qilsin.

Endi yig'lamayman, ona...

## TASALLI

Bir kunlar keladi, sen uchun paydo,  
G'amiga ham joning to'shaysan, ko'nglim.  
Ozorlariga hech qilmayin parvo,  
Sen hali baxtiyor yashaysan, ko'nglim.

Orzuing qoshingda aylanib yurar,  
Bo'g'zingdan otilib chiqar hasratlar.

Shunda ishonchingni qaytarib berar  
Bag'ring huvillatib ketgan fursatlar.

Armoning ro'yoga g'arq bo'lar go'yo,  
Jon taslim qiladi alaming, darding.  
Pushaymondan rangi za'faron, siyoh  
Sendan yiroqlashgan umidlaringning.

Baxt, omadlar kelar chehrasi kulgan,  
Hayoting egallay boshlaydi bahor.  
Hali jamolini ko'rsatmay yurgan  
Oyning yorishajak qancha tuni bor.

Bir kunlar keladi tanho sen uchun,  
Hatto xayol bog'ing bo'ladi so'lim.  
Faqat sen hozircha cho'kib ketmagan,  
Faqat sen hozircha yig'lama, ko'nglim.

\* \* \*

Fasllar almashinur kimlarga qalam yo'nib,  
So'z aytgan har kishining begonasi bo'lmagay.  
Yurak «derazasining oldida oppoq bo'lib  
Gullab» Hamid Olimjon, kuzlar o'tib so'lmagay.

Dunyo yukli karvondir, ko'zi yoshli, bir kamli,  
Bag'irdagi kemtiklar zari bilan to'lmagay.

Hayot! Seni kuyladi yig'lab-yig'lab, alamlı,  
Aytgan so'zi – chin ko'ngling, Zulfiya hech o'lmagay.

## 1-DEKABR

Holimdan bexabar o'tadi quyosh  
Ziyoga to'ldirib koshonasini.  
Osmon sharq-u g'arbning ko'ksini kesib  
Qonlayverar ufqning peshonasini.

Qushlar – tabiatning erkalariga  
Yuragini tutib qolar daraxtlar.  
Ariqning bo'yida mizg'igan shamol  
Eng so'nggi maysani bir-bir varaqlar.

Bunda har ne sokin, har ne osovish,  
Bemalol yarashar yonmoq ham kuymoq.  
Nedandir bir ilinj axtarar xazon,  
Nechundir ruhimni bo'g'adi qiynoq...

Shoshilib yig'laydi kechikkan yomg'ir,  
Kuzgi chorbog'larga aylanar armon.  
To'rt fasl to'zg'igan azobing bilan  
Ko'nglimga to'kilib qolding, Dunyojon!

\* \* \*

Borliq shovulladi tun bo‘yi,  
Cho‘chib tushdi shamol-darbadar.  
Hislarini to‘kdi majnuntol,  
To‘lgan paymonasi barobat.

Ufqlarni sarson kezdi oy,  
Yulduzları botdi yoshiga.  
Boyo‘g‘ililar qo‘ndi bearmon  
Yaproqlarning dilbar tushiga.

Na o‘kindi, na kului zamin,  
Lahzalari kechilmadi tinch.  
Fig‘on chekdi maysalarining  
Yuragiga aylangan sog‘inch.

Borliq shovulladi tun bo‘yi,  
Cho‘chib tushdi ko‘nglim-darbadar.  
To‘kilmoqlik qo‘shig‘in tinglab,  
Yig‘lab berdi to tongga qadar.

\* \* \*

Sen buncha kechikding...  
Men buncha toldim...  
Shunchalik bo‘lurmi intizorlik ham?!

Bo'g'zimda adashdi manzilsiz yig'i,  
Ko'ksimga tutashdi sarg'aygan soyam.

Aytib aytolmadim dilimdagini,  
Qaytib qaytolmadim o'tmishta tugal.  
Faqat... ko'zlariningda keladi o'lgim,  
Faqat... yo'llaringga qarayman mahtal.

Sen buncha kechikding,  
Men buncha toldim,  
Bunchalar jonimni asrar Xudoyim?!  
Nechun buncha sarson etyapti meni  
Hayoti seniki bo'lgan dunyoyim?!

\* \* \*

Yillar to'kaverdi ohorlarimni,  
Yo'llarda qaritdi bahorlarimni,  
Bir-bir qabartirib qarorlarimni  
Sen qayon borursan, murodim?

Shamollar qo'lida sitildi umrim,  
Namozshom yo'l qarab titildi umrim,  
So'ng tunning to'riga tutildi umrim,  
Sen qayon borursan, murodim?

Osmonlar bag'rida munqlar bor emish,  
Oqshomlar qa'rida janglar bor emish,  
Faqtiki g'amlarda tonglar bor emish,  
Sen qayon borursan, murodim?

Nomurod ertaklar o'qidi otam,  
Nomurod ertaklar to'qidi onam,  
Shundoq ko'zlarimga yiqildi olam,  
Sen qayon borursan, murodim?

Kimnidir sog'inib, yonib boryapman,  
Ishqimga, ashkimga qonib boryapman,  
O'zimdan va sendan tonib boryapman,  
Sen qayon borursan, murodim?

### DALA QO'RIQCHISIGA

Sen – dunyoning yolg'iz o'g'li,  
Mushfiq onang – yaydoq dala.  
Ko'r ganlaring to'rtta fasl,  
Topganlaring oq-u qora.

Senga raqib qilib qo'yib  
Zog'chasi-yu chumchug'ini,  
Yonginangdan o'tar hayot  
Aylantirib urchug'ini.

Yillar sabring sinayverar,  
Haddingdan hech o'tmagansan.  
Vafo birla padaringdan,  
Volidangdan ketmagansan.

Ro'yo bo'ldi umrim mening,  
Otam – birov, onam – hech kim.  
To'kilmadim yo'llariga,  
Men kimman, ayt, ayt, qo'riqchim!

Oy bo'zjadi tun ichida,  
Bexos gullab ketdi kamim.  
Tong kuzlagan u kechadan  
Men o'zimga o'zim g'anim.

Sen boshqasan, men o'zgaman,  
Qocholmayman o'ylarimdan.  
Juldurlaring afzal ekan  
Bahor kiygan ko'ylagimdan.

Arzonlashib borar jonim,  
Diyonatdan saboq bergin.  
Zilol oqib boray Haqqa,  
Ko'zlarimga chiroq bo'lgin.

Singling bo'lay, menga o'rgat  
G'amlarga ham jim turishni,

Zamining qoq o'rtasida  
Yurak bo'lib urishni.

Arzonlashib borar jonim,  
Diyonatdan saboq bergin.  
Zilol oqib boray Haqqa,  
Ko'zlarimga chiroq bo'lgin.

\* \* \*

"Turkiyada qolishni istamayman. O'zbekistonga borib  
yashamoqchiman. Menga yordam beringlar!.."

**Tolgay Ali Arslan**

Tolgay, O'zbekiston chindan jannatdir,  
Qush kabi yashaysiz kelsangiz, Tolgay.  
Lekin siz ketsangiz, do'stingiz ketsa,  
Ayting, Vataningiz kimga suyangay?

Ko'rguliklar bisyor mening momomda,  
Qirg'inbarotlardan ezilgan tani.  
Aytar: "Belbog'lilar ko'p bo'lsa elda,  
Tuproq toptalmaydi, Vatan o'lmaydi!"

Tunov kun yo'qoldi bitta jo'jamiz,  
"Tulki olib ketgan!" – onam yig'lagan.

Qo'lga xivchin olib, to'nin yopinib  
Katakning yonida uxladi ukam.

Sahar turib o'zin uyda ko'rди-yу  
Kо'п to'polon qıldи, qichqirdи atay:  
"Endi meni tulki qо'rqоq deb o'ylar!"  
Negadir yuragim yig'ladi, Tolgay.

Chunki ulg'aygandi ko'zida Vatan,  
Chunki unga shu yurt daxldor edi.  
Chunki yuragida o'zidan ulkan,  
O'zidan o'zgan or-g'urur bor edi.

Kelsangiz, uyimiz to'ri sizniki,  
Osh-non ham beramiz, qorningiz to'ygay.  
Faqat... ichingizda kechgan janglardan  
Qayerlarga qochib ketasiz, Tolgay?!

\* \* \*

*Nargiz opamga*

Men ko'п bor tingladim ohanglaringni,  
Kо'nglingni ko'nglimday yodladim oxir.  
Sen haqda o'ylasam: bir tanish kimsa  
Oqsoqlanib o'tib borar ruhimdan  
Notanish tonglarda chekib xavotir.

Shamol bo'lgim kelar Surxon yoqlarda,  
Kulgungning loyiga botgim keladi.  
Iztiroblaringni qilib tomosha,  
Osmon ko'z-yoshidan ungan daraxtday  
Yig'ingning ta'mini totgim keladi.

Hayotim – simlari uzilgan dutor,  
Aytgin, qay jarangda mening kuylarim?  
Bir jonim yetmasov avjiga deya  
Armon, hijron, ishqning notalarida  
Men yonib kuyladim, kuyib kuyladim.

Sening ta'rifingga yetmas jur'atim,  
Men faqat deymanki senga cho'kib tiz:  
“Ko'nglingni, umringni nuratma, oyqiz...”  
So'zları ma'suma, kuyları mahzun –  
Sen men aytolmagan qo'shiqsan, Nargiz!

\* \* \*

Go'dak uxlamadi bu kecha,  
Ko'zlarini yummadi Ayol.  
Mahzungina aytildi alla,  
Ma'yusgina titradi shamol.

Allalardan uxbab qoldi tong,  
Hushyor edi osmonning gardi –

Bo'zargan ufq horg'in Ayolning  
Ko'zlaridan boqib turardi.

### KETYAPMAN

Ketyapman...  
Endi hech kelmayman qaytib,  
Ruhim bog'larini kuzlatolmaysiz.  
Xazonlarga o'rab tuyg'ularimni  
Qahraton bag'rida muzlatolmaysiz.

Ketyapman...  
Ortimda qolar beso'roq  
Qismatim yukidan horgan yillarim  
Va yana yo'limda to'kilar oppoq  
Siz menga tutmagan baxtning gullari.

Ketyapman...  
Ko'nglimni butar yoqlarga  
Kuni sug'orilgan nifoqlar bilan.  
Balki, opa-singil bo'lib qolarmiz  
Yuragimga yaqin shafaqlar bilan.  
Ketyapman...

\* \* \*

Shamollarga ergashdim, chopdim,  
Hilollarga ergashdim, chopdim,

Xayollarga ergashdim, chopdim,  
Zavollarga ergashdim, chopdim,  
Zilollarga ergashdim, chopdim.  
Topdi...  
Menga yetib oldi o'zim baribir.

# *Badialar*

## XUDO VA YIG'I

(Turkum)

### MEN, YOMG'IR VA XUDO

Bolaligimda Xudo-Xudo degan o‘z o‘yinim bo‘lardi. Bunda ishim yurishmasa, Xudodan arazlardim, omadim kelishi bilan yana yarashib olardim. Bu menga shunchalar zavq berardiki, U bilan o‘ynash menga judayam yoqardi. Ilk bor Undan qattiq ranjiganimi ni yaxshi eslayman: 5-sinfda o‘qib yurgan kezlarim “Nima uchun hamma ota-onasi bilan yashaydi-yu, men bobo-buvimnikida yashayman?” degan savol bilan Unga murojaat qilib javob ololmadim.

Keyin “Meni mehribonlik uyidan asrab olishgan bo‘lsa-chi?” degan xayolda katta tanaffus payti o‘qituvchilar xonasidan tabelimni o‘g‘irladim (o‘g‘rilik yomon, bu savolimga javob bermagani uchun Unga jazo edi go‘yo) va “Ota-onasining ismi” degan joyida uzoqda yashab, har zamonda xabar olib turadigan onamning ismiga va notanish erkak ismiga ko‘zim tushdi. Uyga kelib momomdan buning javobini so‘radim. Momom mendan bunday gapni kutmagan, shekilli, avvaliga bir so‘z demay qotib qoldi, keyin uzoq yig‘ladi, judayam ko‘p yig‘ladi. Meni bag‘riga bosib yig‘ladi va ko‘chamizning boshida turadigan odam otam ekanini, onam bilan tug‘ilmasimdanoq yo‘llari ayro tushganini va men shu yerda qolib, onam boshqaga turmushga

chiqib ketgani aniq bo'ldi. Men o'n ikki yoshda edim. Ozgina yig'ladim. Keyin do'stim – Xudo bilan apoq-chapoq bo'lib ketganim murg'ak qalbimning ezilishiga yo'l qo'ymadni. Har holda, endi kimning bolasi ekanim aniq edi.

Men otam bilan yuzma-yuz bo'lish rejalarini tuza boshladim va bir kuni bu ro'y berdi. Maktabdan qaytishimda u kishi xotini bilan bozordan qaytayotgan ekan. Qattiq yomg'ir yog'ayotgan edi. Orqalaridan qolmay kelaverdim. Ko'zlarimga qarasa, chiroqli tabassum qilaman va shu bilan meni yaxshi ko'tib qoladi degan tasavvur bor edi menda. Ko'chamiz boshigacha keldim. Lekin qaramadi. Bir bor bo'lsayam ortiga o'girilmadi. Uyiga kirib ketguncha turdim. Yo'q, qaramadi.

Katta ko'chada men, Yomg'ir va Xudo qolib ketdik. Shu bilan hammasi o'zgardi. Hammasi tugadi. Hammasi boshlandi. O'shanda murg'ak yuragimda ilk bora og'riq sezganman. Keyin bu og'riqlar ko'paydi va Xudo bilan ham endi o'ynamay qo'ydim. Yuragim tez-tez sanchib qo'yadigan bo'ldi, keyin oyoqlarimdan mador keta boshladi. Har qadamda shamollar meni ta'qib etardi. Nazarimda, undan arazlaganimni bilib, o'zini tanitmaslik uchun shamol shaklida ortimdan so'zsiz ergashardi Xudo.

Mening arazlarim beozor edi. Hech kim bilmasdi og'riqlarimni. Faqat o'zim... dunyoning chalkash chiziqlarida muvozanatimni qanday saqlay olish haqi-

da ko'p o'ylardim. Maktabni bitirib, kollejga kirdim-u, ko'p vaqt o'tmay butunlay yotib qoldim. Toshkent qaytardi, Samarqandda jonim omon qoldi. To'rt marta murakkab jarrohlik operatsiyasini boshimdan o'tkazdim. Sochimni olib tashlashdi. Birinchi operatsiyadan keyin uyg'onsam, boshimning terisini teshib, ikki chakkamdan temir bilan tosh osib qo'yishgan ekan, ikki oyog'imning ikki chetiga ham tosh osishibdi. Farroshlar ehtiyoitsizlik qilib osilib turgan toshga tegib ketishsa, miyamning ichida qolib ketardim. Shu zayl o'n uch kun yotdim. Momom va xolamlar almashib qarashdi.

Bandasining boshini falakning toshidan ham mustahkam qilib yaratgan ekan Xudo. Boshim uzilib tushadi deb o'ylardim. Hech narsa qilmadi. Uchinchisida klinik o'lim qayd etildi va o'shanda bir lahzaga jannatga tushib qoldim (shekilli). O'qishni davom ettirish uchun ruxsat oldim. Oyoqlarim yengil, hech qanday og'riqlarsiz, xotirjamlik va quvonch bilan o'quv binosi tomon yugurdim. Ikki-uchta qizlar bilan tanishdim. Ular meni sinfxonaga emas, bog'ga olib borishdi. Kiraverishda yigitlar men tomon hayron boqishdi. Yangi kelgan bu dedi yonimdagi qiz. Keyin hamma bog'ning o'rtaida osmonga ilinib turgan tolalarga osilib olishdi. Shunday ingichka tolalar qanday qilib bir odamni ko'tarib turganiga aqlim yetmasdi. Shoshilgancha o'z tolamni qidira boshladim.

Ammo hammasi band edi. Qizlarga yalindim, hech kim bermadi. "Yangi qiz, sening arg'imchog'ing yo'q, endi o'qiyolmaysan bizda", – dedi yigitlardan biri. Yig'lamoqchi bo'laman, tomog'imda qattiq og'riq paydo bo'ladi. Keyin yana nimalardir bo'ldi, yaxshi eslay olmayman. Ammo uyg'onganimda bildimki, men yana o'sha og'riqlar, rahmdil qiyofalar ichida edim. "Haliyam kislorodni vaqtida topdik!" – dedi kimdir. "Nimaga topasan? Shunday chiroqli hayotdan meni tortib olding. O'ynab-kulib o'qib yurmoqchiydim, og'riqlarsiz yashamoqchiydim, kislorodga balo bormidi?!" – dedim alamlı. Ammo ovozim chiqmas, qo'llarimni qimirlatishga-da madorim yetmasdi.

## TUSHLARIM

Xudo bilan arazlashganimdan buyon har kuni tushlar ko'raman. Ularning aksariyati qorong'u. Deyarli barchasida katta-katta toshlar egallab olgan uzun yo'llar, nursiz loy ko'chalar, sirpanib muvozanatimni tutolmayotganim, zinalardan chiqishga qynalayotganim tasvirlanadi. Ammo hammasida yuraman. Bir kuni xolam bilan bozor aylanishga bordim va chiroqli kiyimlar xarid qildim. Qaytar chog'imizda qayerdandir momom va buvam paydo bo'ldi. Buvam meni ko'tarib mashinaga o'tkazmoqchi bo'ldi. "Buva, meni qo'yib yuboring, o'zim yura olaman-ku", – deb qo'rqib

uyg'onib ketdim. Qarasam, o'sha xolam xonamni supurayotgan ekan. "Turdingmi, yonbosh qilib qo'yayin-mi?" – dedilar nihoyatda sokin ovozda. Yurish, mustaqil o'tirish tugul, yonboshga ag'darila olmasligim yodimga tushdi. Indamadim. Men tushlar ichida yo'qolib ketishni shunchalar istadimki!

Keyingi kuni qo'shnimiznikidagi qandaydir mafrosimda qatnashayotgan ekanman. Yaxshi yuribman, hamma og'riqlarim unutilgan. To'satdan qachondir operatsiya bo'lib yurolmay qolganim yodimga tushib qoldi. Tushlarimda yurganlarim xayolimdan o'tdi. Cho'ntagimdagi telefonga qaradim-u qo'shni qiz – Zuhraning yoniga chopib bordim.

– Zuhra, meni suratga ol, tez bo'l! – dedim hovliqib.

– Nega? – dedi ajablanib. – Rasmga tushib nima qilasan? Yur, undan ko'ra daryoga boramiz.

– Zuhrajon meni rasmga olmasang bo'lmaydi, shu turishimda rasmga ol. Juda ko'p tushlar ko'ryapman. Yurolmasmishman, Zuhra. Ishongim kelmaydi. Yurib turgan odam ham yurolmay qoladimi, axir? Menga qara, hozir o'ngimmi bu, mana qo'llarim, mana oyoqlarim, demak, o'ngim. Sog' yuribman. Ma, telefonimda rasmga tushib olay, – dedim yig'lab.

– Jinni bo'ldingmi, yuribsan-ku, tushga nimalar kirmaydi deysan. Rasmni nima qilasan, o'zi? – dedi Zuhra achchiqlanib.

– Bilasanmi, hozir juda baxtiyormen. Lekin shu quvonchim ham tush bo‘lishi mumkin, qo‘rqtyapman, Zuhrajon. Nima qilay, bu tushlar meni ado qilyapti. Yuragimni oldirib qo‘ydim shu tushlarga. Shu yerda qolishni istayman. Shu zaylda qolmoqchiman. Shu holimcha yashamoqchiman. Meni bag‘ringga bos, mahkam quchoqla, qo‘yib yuborma, yomon tushlarning meni tortib olishiga yo‘l qo‘yma. Qo‘rqtyapman. Mabodo... Agar hozir meni rasmga tushirsang va mabodo bu tush bo‘lsa ham, shu telefonimni tushimdan olib o‘taman va meni davolay olmagan do‘xturlarga ko‘rsataman, keyin davolab tuzatishadi, – dedim.

Lekin bu tush emasligidan ko‘nglim xotirjam edi. Zuhra meni suratga oldi. Zudlik bilan qafasidan ozod bo‘lgan qushday telefonni mahkam quchoqlab oldim. Atrofimdag‘i minglab nigohlardan yashirdim. Shu alfoz qancha vaqt turdim, bilmayman, uyg‘onganimda qo‘llarim bo‘m-bo‘sh edi. O‘zimni paypaslab telefonni uzoq qidirdim, ammo topa olmadim.

2011-yil

\* \* \*

Tanamda jarohatlar nihoyatda ko‘p. Besh oydan beri muntazam, kuniga ikki mahal muzlab isitma qilaman, qaltiroq suyak-suyaklarimgacha yetib boradi. Oxirgi kunlarda isitma tushiruvchi ukol ham ta’sir

qilmay qoldi. O'tirg'izib qo'yishsa, ko'nglim behuzur bo'ladi, boshim aylanadi. Oxiri bo'lmadi, tog'am yana shifoxonaga olib bordi. Qonimga infeksiya tushib ketibdi. Qonimni almashturishdi. Ammo isitmam tu-shay demaydi. Shifoxonaga kelganimning to'rtinchi oylarida sal-pal ahvolim o'nglangandek bo'ldi. Ertalab shifokor bitta ukol qilib ketadi va kuni bo'y়i kayfiyatim yaxshi bo'ladi. Bu ukoldan besh kun oldim, oltinchi kuni yakshanba edi, shifokor biroz kechikdi. Ahvolim to'satdan og'irlashdi. Yana issig'im ko'tarildi, hech qanday ukol ta'sir qilmadi. Qaltiroqlarim ortib ketaverdi. O'n daqiqalardan so'ng shifokorim hovliqib kirib keldi va o'sha ukolini qildi. "Yo'lda ushlanib qoldim", – dedi. Birpasda tinchidim. Juda yengil bo'ldim. Ammo ko'nglimga bir xavotir oraladi. Bu qanaqa ukol, o'zi? Nega menga shundan bo'lak boshqa hech narsa ta'sir qilmayapti? Unga o'rghanib qolsam nima bo'ladi? Ertasiga barvaqt turdim va o'zimni sinadim. Shifokor kelguncha oz-moz bezovtalandim. Ukol o'z vaqtida keldi.

– To'xtang, bu qanaqa ukol, o'zi, nomi nima? – dedim.

Shifokor talmovsiradi.

– Tinchlaning, bu qo'rqinchli emas, hozir ahvolingiz nihoyatda og'ir. Faqat shu ukolgina sizni tinlayapti. Buni biz eng so'nggi chora sifatida qo'llaymiz. Bu garmon, narkotikning bir turi desa ham bo'ladi, – dedi.

Jahlim chiqib ketdi. "O'z hayotim uchun o'zim mas'ulman, olmayman garmoningizni", – deb qat'iy turib oldim. "Og'riqlarga chidayman desangiz, mayli", – deb chiqib ketdi shifokor. Juda qattiq og'ridim. Odamning joni bitta shprisning ichiga bemalol sig'adiya! Menden ham ko'ra momom ko'proq azobda. Qo'rwmang deyman, shu ukolga o'rganib qolsam bundan battar bo'laman deyman. Momom baribir qo'rqa-veradi. G'ujanak bo'lib qolaman, oyoq-qo'llim qaltiraydi. Ammo ertam uchun chidashim kerak. Uzog'i bilan uch kun qiyndildim. Xudoga shukr, hammasi o'tib ketdi. Shu shifoxonada momom bilan yangi yilni ham, Navro'zni ham o'tkazdik. To'qqiz oydan keyin uyg'a qaytdik. Jarohatlarim o'n yetti oyda bitdi.

2012-yil

\* \* \*

Biroz o'tirib qoldim. Uyda zenkyapman. Biror yu-mush bilan ovunmasam bo'lmaydi. Maktabda o'qib yurgan kezlarim u-bu nima qoralardim. Shuni davom ettiraman. Juda ko'p narsa yozyapman. Ayniqsa, nasrda. She'rga hafsalam yo'q. Ammo yuragimda juda katta vulqon otlishga tayyorlanayotgandek his qilaman o'zimni. Kitoblarim chop etilganini, unga katta-katta shoirlar yuqori baho bergenini tushlarimda eshitaman. Yana men haqimda judayam ko'p maqolalar yozilayot-

ganini his etaman. Hammasi she'rlarim haqida. Yana o'ylayman, men she'r yoza olmayotgan bo'lsam, bu tushlar ham shunchaki xomxayol. Ammo ko'nglimga kelganlarini umid bilan qog'ozga tushirib qo'ydim. Bir nechta gazetaga yubordim, 2-3 tasi chop etildi. Buvam har hafta "Bekajon" olib keladi. Hamma sahifasini o'qib chiqaman va fikrlarimni yozib, har hafta maktub yuboraman. Ko'pi chop etildi. Lekin she'rlarimni hech chiqarishmayapti. Ammo bir kun chiqarishadi, o'zimdan so'rab olishadi. Ko'nglim to'q. Demak, yashasa bo'ladi.

2013-yil

\* \* \*

Ijodni sevib qoldim. Tinimsiz yozaman. Uyimizga viloyatimiz gazetasidan muxbirlar kelishdi. Hatto tashakkurnoma ham berishdi. Men bir haftada ikkita ijodiy ishim bilan tinimsiz gazetada chiqish qilaman. "Bekajon" gazetasida uch-to'rtta she'rlarim chiqdi. Hatto tadbirlariga ham taklif etishdi. Hech ko'chaga chiqmas edim. Hamma ustimdan kulayotgandek tuyulardi.

Ko'zimni chirt yumdim-u Samarqandga bordim. Dovdirab ikkita she'r o'qidim. Bunday davrada birinchi bo'lishim edi. Kimga qanday muomala qilishni ham bilmadim. Shoira Xosiyat Bobomurodova kitob-

lariga dastxat yozib, qo'limga berdilar. "Katta shoira bo'lasan", – dedilar. Kulqim keldi. "Men sizlarga o'xshab katta davralarga borolmayman, katta yig'in-larga qatnasholmayman, zinalardan chiqolmayman, shuning uchun orzuda ham me'yorni unutmaslik kerak", – degim keldi. "Bekajon" gazetası she'rlarimni so'radi. Kitob qilar emish. Mening pulim bo'lmasa. Indamay berdim. Bir necha oydan so'ng "Hovuchdag'i yurak" nomli ilk kitobim qo'limda bo'ldi. Xosiyat Bobomurodova juda chiroyli so'zboshi yozibdilar. Bir haftadan so'ng "Bekajon"da ustoz yozuvchi Tohir Malik so'zları bilan bir turkum she'rlarim bosilib chiqdi. Momom ham xursand. Hech bo'lmasa, ijodiy yantuqlarim ko'paymoqda.

2014-yil

\* \* \*

Ijodkor do'stlarim ko'paygandan ko'paygan. Tumanimiz yoshlari hokim qabuliga kirib, meni davolatish va oyoqqa turg'azish haqida murojaat qilgani haqida eshitib qoldim. Toshkentda bepul davolanishim uchun qo'limga order berishdi. Avvaliga bormayman dedim. Momom qo'ymadni, shularning mehnati zoye ketmasin, bir havo almashtirib kelasan dedi.

Bordim. Meni goh u shifoxonaga yuborishadi, gohida bu. Oxiri Respublika neyroxiurgiya markazida

to'xtadik. Shifokor barcha tekshiruvlardan o'tkazdi. "Shunaqasiyam bo'ladimi, oyoqlaring sog'lom-ku, nega yurolmayapsan", – dedi. Hayron bo'ldim. Er-tasiga yana bitta apparatga soldi. Uch-to'rtta vrach birgalashib tekshirishdi. Momom tashqarida edi. Shifokor juda hissiz ekan. Oldimga kelib o'tirdi-da, "Ko'p operatsiya bo'lganining natijasida orqa miyangda o'simta paydo bo'libdi", – dedi. O'zbekistonda olib bo'lmas ekan. Mikroskoplari yo'q emish. O'simta nihoyatda orqa miyaning ichkarisida emish. "Shu turishda yuraversam, hech narsa qilmaydimi?" – desam, ko'zlarimga qarab: "Qiladi, avval qo'lingning harakatini cheklaydi, keyin ko'rish faoliyattingga ta'sir qiladi, oxiri o'lim bilan tugaydi", – dedi. Nima deyishni bilmadim. Endigina yashamoqchiydim-a!

Hamshira meni zalga, momomning oldiga olib chiqdi. Momom ko'p savol berdi, qulog'im eshitib-eshitmay qoldi. Faqat yig'ladim. Chorasizman. Nariroqda buvam turardi, yonimda momom. Shunday ojiz va vayron turib qoldim. Uyga kelib o'yladim, xo'sh, kasalimning oxiri o'lim bilan tugar ekan, hayotimning ham oxiri o'lim-ku! Mayli, nima bo'lsa bo'lar, yozaveray-chi! Alam bilan, iztirob bilan juda ko'p she'rlar yozdim. Bitta homiy topilib, ikkinchi "Ufqqa yo'll" kitobim ham chop etildi. Hech xursand bo'lgim yo'q. Xayolimda kimlarningdir shu kitobimni o'qib, meni xotirlab, yig'lab o'turgani paydo bo'laveradi.

Tumanimizda bir tanlov o'tkaziladigan bo'ldi. Uyda siqilib qoldim. Buvamga aytgandim, olib bordi, qatnashib, jurnalistika yo'nalishida 1-o'rinni oldim. Gazetada chiqqan hamma ishlarimni to'pladim-u bিroz vaqtidan so'ng tanlovnning viloyat bosqichiga yo'l oldim. O'zim o'qigan kitoblar bo'yicha savollar tushdi, aytishim mumkinki, hamma savolga xotirjamlik bilan to'g'ri va aniq javob berib respublika bosqichiga yo'l oldim. Momom: "Yo'l uzoq, o'n kun turarkansan, bormaysan", – dedilar. Men boraman deb qat'iy turib oldim, bitta jiyanimni olib yo'lga tushdim. "Qiynalsam o'zim aytaman, olib ketasizlar", – dedim. Hamma yordam berdi. Qiynalmadim. Respublikada ham g'olib bo'ldim.

Endi she'r yozish jarayonim umuman o'zgarib ketdi. Huuv o'sha ichimga kirgan qaltiroqlar tashqariga she'r bo'lib chiqar edi. Ko'zlarimdan chiqar edi. Men lovullab yozdim, devonaday yig'lab yozdim, maj-nun shamollarga sovrib yozdim, goho tuproqdayin xokisor, gohida osmondan-da yuksalib yozdim. Shu she'rlarni o'qiyotsam, qaltiroqlar ovozimga ham qal-qib chiqadigan bo'ldi. Mast bo'ldim, ko'nglimning ichida sarson bo'ldim. Yozdim-u, nima deb yozayot-ganumni bilmay yozdim.

2015-yil

\* \* \*

Qolganini yozgim kelmaydi. Xudo umr ber-sa, 50 – 60 yoshlarimda hammasi haqida batafsil yozarman. Balki, uni kitob ham qilarman. Hammani kechirdim, hech kimdan arazim yo‘q. Dardlar ham tabarruk, dardlar ham joiz. O‘n olti yil yugurdim, yetti yildan beri yiqilib turibman. Nega mana shu o‘n oltim yettimdan yengilroq, yettimdan sayozroq?! Yettining toshlari o‘n oltining toshlari oldida bun-chalar og‘ir!?

Nima bo‘lsa ham, Xudoyimning tarozisi to‘g‘ri ishlaydi. Xudoyimning shu dardlari meni kuchli qildi, irodali qildi. Har qanday vaziyatga ko‘niktirib, har qan-day nohaqlik oldida jahlimni jilovlay oladigan qildi.

Atrofga qarayman, momom, buvam, tog‘am, yangam va jiyanlarim – hammasi atrofimda girdikapalak. Mana bu yangam, birovning bolasi, men unga kim-man, necha yildan beri momom bilan yonma-yon menga qaraydi, nega u onamdan ham mehribon? Momomni-ku har kun o‘ylayman. Jiyanlarim o‘z opasidek ko‘radi meni, uyga mehmonlarim kelishsa, yugurib xizmat qilishadi, biror marta bo‘lsa-da malol olganlatini eslolmayman.

Men, o‘zi, kimman? Yaqinda bir psixolog bilan gaplashib qoldim. Men unga tushkunlikka tush-masligimni isbotlamoqchi bo‘ldim. Lekin uning gaplaridan angladimki, men tushkunlikning eng tubi-

ga yetib bo'libman. "Endi pastga yo'l yo'q. Endi yo'l faqat yuqoriga", – dedi psixolog.

Yuqoriga qarasam, na zaminni ko'raman, na dunyoni, na osmonni. Faqat Xudo va yig'i, Xudo va yig'i... tegramda charx aylanadi, boshim aylanadi, ko'zim tinadi, yuragim behuzur bo'ladi. "Meni tortib ol", – deyman Xudoga. Toqatsizlanaman. Bezovtalanaman. "Men ko'rsatgan yo'ldan kelaver", – deydi. Yig'inining yelkasiga boshimni qo'yaman. Huzurlanaman.

Ko'p o'ylayman, hayot yo'llarida nega buncha ko'p dovdiradim? Ortinga qarab savollarimga javob topgandek ham bo'laman.

Maktabga juda katta mehr, cheksiz ishtiyooq bilan chiqqanman. Alifbeni barcha sinfdoshlarimdan oldin o'rganib oldim, harflarni tushimda ham takrorlab chiqardim. Ikkinci chorakdan so'ng darslarni zo'r o'zlashtirganim bois ustozimiz "Kitobim – oftobim" nomli kitob berdilar. Suratlariga shunchalik mahliyo bo'ldimki, hayotimni ham shu kitoblarda tasvirlangan-dek o'tkazishga urinardim. Kitobiy so'zlar yod bo'lib ketgandi. Faqat oilaviy suratlarida ota-onamni ko'ra olmasdim, hech nimaga aqlim yetmasdi.

Keyinchalik "Odobnama" kitobim menga yo'lboshchi bo'ldi. Odobli, aqqli qiz bo'lishga urinardim. Kattalarning aytganini qilishga o'rgandim. "Halol bo'laman, keyin hech qachon ozorlanmayman", – derdim. Hatto hozir ham kitoblar ichida

yashayman. Odamlar orasida yashashni istamaganim uchun dovdirayotgandirman, balki. Bilmasam. Odamlarga qaragim kelmaydi. Qarasam, faqat nasihat o'qishadi. Nasihatlarni yomon ko'raman. Qo'shni kelin qaynsinglisi bilan kelisholmay ketib qoldi. Ajrashishdi. U homilador edi. Birinchi farzand. Yaqinda tug'iladi. Qo'shnimiz o'g'lini uylantirmoqchi. Farzandi tug'ilgandan keyin onasini turmushga berishadi. U chaqaloqning taqdiri nima bo'ladi? Odamlar kimlargadir maslahat berguncha o'z hayatlarini izga solsalar yaxshi bo'lardi.

Hozir o'zimni yig'ib ololmayapman. Shunday to'zg'ib ketganmanki, yaxshiyam, Xudo bor. Yaxshiyam, U yonimda. Nihoyasiz baxtli kunlarimning birida U bilan hayat haqida to'la-to'kis xulosa aytaman. Aytaman.

## ODAMLARNING KO'ZI

Telbaman. Borliqning ko'zidan endigina dunyoga kelayotgan kurtaklar nigohim bilan o'ynashadi. Ruhim qaldirg'ochlar karvoni tomon oqa boshlaydi.

– Qanaqadir g'alatiroqsiz-a? – supurgiga tayangan qo'llar bir dam o'yga toladi. – Nima bo'lgan, o'zi, sizga?

– Men... tonglarning yodidan yiqliganman...

Hayrat quchgan chehra men tomon bir qadam tashlaydi-yu ortga chekinadi.

– Zo‘r-a?! – hamrohim qoshining qanot qoqqani supurgi tutgan qo‘lning zavqini keltiradi. – Lekin men bunaqa gaplarga o‘rganmaganman.

– Odamlarning ko‘ziga xunuk ko‘rinib har nima deyaverma! – Momomning barmog‘i biqinimga san-chiladi.

Karavot g‘ichirlaydi. Yon tomonimdag‘i kimsasiz rus kampirning tili kimlarnidir uzoq qarg‘agancha menga yuzlanadi:

– Folbinga bor. “Suq” kirgan senga. Mengayam odamlarning ko‘zi tegdi. Yoshligimda juda go‘zal bo‘lganman. Mana, – yupqa mato ostidan o‘ychan boq-qan oyoqlar menga kech kuzakdan qolib ketgan chirik xazonni eslatadi. – Ko‘ryapsanmi, bu “ko‘z yara”. Necha yildan beri tuzalmaydi. – Kampirning norozi qiyofasi allanimalar degancha yana o‘girilib oladi.

“Odamlarning ko‘zi...” Xayollar mamlakati meni o‘g‘irlab ketadi.

– Mana bu gullar so‘libdi, tashlab yubor, – bemor qarovchisining barmog‘i bag‘rini so‘ligan qalbga to‘ldiradi.

Nigohim hadik-la kimsaning ortidan ergashadi.

Axlat qutisiga borib, boshini urib yorayotgan gullar ohista oh chekadi: “Nega men gul? Nega men gul?”

Faryoddan ruhim daryolari ezilib shovullaydi:  
“Nega u gul? Nega u gul?”

Tong osmonning to‘kilayotgan ko‘ngli bilan ota-di. Derazaga bir maromda yuz bosayotgan tomchilar ko‘ksimda olam bilan quvlashmachoq o‘ynayotgan bo‘ronni allalaydi: “Chirsss... charsss...”

– Mana bu kasalxonaga borib keling, – bag‘ridan manzil yozilgan qog‘ozni chiqargan old cho‘ntak erkin nafas oladi. – Biz aniqlay olmayapmiz.

Cheksiz yo‘llar qadamlarni tezda yutib yuboradi.

Oq xalatli nimalardir deydi-yu boshimda izini qoldiradi. Momom alamli pichirlaydi: “Dunyosiga o‘t ketsin!”

Mashina iziga qayta boshlaydi. Yo‘llardan o‘tgan yillarimni so‘roqlab, ichimda bazm-u jamshid qilayotgan g‘alayon bilan hodisaga duch kelaman: faqat samoga qadalgan yuzlab nigohlar yo‘lning naq yuragi-da yotgan itning sovuq murdasiga e’tibor bermayot-gani zaminni g‘azablantiradi – osmon ko‘nglini butun-lay to‘kib tashlaydi. Ashklardan rangini yo‘qotayotgan yer qartaygan umidini quchoqlab nola qiladi: “Dunyo bevafo! Dunyo bevafo!”

Tebranayotgan daraxtlar ko‘ksiga sizib kirgan dunyo qushlar tilida ma'yus shivirlaydi: “Nega men dunyo? Nega men dunyo?”

Oq xalatlining gapidan so‘ng hech narsani eshit-mayotgan qulog‘im ko‘zini ochadi, g‘uborlarimni

to'satdan tarsakilab yuboradi: "Nega u dunyo? Nega u dunyo?"

– It... o'lib qolgan, it... o'lib qolgan, – bexosdan tilim ishga tushadi.

– Odamlarning ko'zi o'yilsin shu o'likni ko'rmay,  
– haydovchi asabiy so'zlaydi. – Birortasi oyoqning tagidan chetga olib tashlasa bo'ladi-ku!

"Odamlarning ko'zi" yana diqqatimga ega bo'ladi.

Kunlar shoxlarini silkitib-silkitib o'tadi. Fasllar navbat bilan uzlatga chekinadi.

– Qo'y, siqilma. Hammasi unutiladi. Ilojsiz narsa ning o'zi yo'q, – har qadog'iga mehr uya qurgan qo'llar kiftimning yuzini silaydi.

"Qanday qilib? Nega unutiladi?" Fikrlarim os-tin-ustin bo'lib ketadi. Ajinli yuzga ma'nosiz boqaman:

– Hamma narsaning iloji bormi?

– Ha, bo'lmasam-chi! Faqat o'limdan boshqa!

– Meni... bolaligimga qaytarib bering.

– ...

– Maktabga ilk bor qadam qo'yganimdag'i ilk titroqning yuragini qarog'imga joylab qo'ying! Toki boshqa gard to'la tuyg'ularga o'rinn qolmasin.

– Bo'ldi qil! Haqiqat egiladi, bukiladi, sinmaydi!

– Unda haqiqat rezina ekan-da! Agar u sinadigan bo'lsa, egila olmasdi. Bukilishi bilan qarsillib sinardi.

– Ko'p gapirma. Odamlarning ko'ziga telba bo'lib ko'rinasan.

Vaqt ko'zlarini yumib-ochib meni ijodiy davralar-ning biriga tushiradi.

— Biz she'r yozayotganimizda umuman tushkun holatlarni tasvirlamasligimiz kerak! — Kipriklar o'z sohibasining jamoliga maftun bo'lib bezovtagina pirpiraydi. — Shoirlarning vazifasi — odamlarning ko'ziga o'z she'ri orqali dunyoni chiroqli ko'rsatish. Biz faqat baxtni, shodlikni kuylashimiz kerak. G'amlarni, dardlarni unutaylik. Dunyo go'zal, hayotimiz betashvish!

Quyuq chapaklar noz uyqudag'i devorlarni uyg'otib yuboradi.

“Nega men odam deb saylandim?” — sochiga oq oralagan ko'nglimning qo'ng'irog'i behadik chalinadi.

“Nega men odam emas?” — qichqiradi chirik xazonlarning ostida qolgan haqiqat — odamlarning ko'zi...

## TO'KILMAGAN TUYG'ULAR

(*Hikoya*)

Bu yil qish har yilidan sovuq keldi. Kunda, kuno-ra ustma-ust qor yog'adi. Yaproqlarini to'kib, sokin tortib qolgan daraxtlar egnidagi oppoq to'nidan hech xalos bo'lolmaydi.

Bugun yangi yil. Otam bozorga chiqib ketgan. Onam somsa yopamiz deb xamir qoradi. Singlim bilan men piyoz archamiz.

– Ikkovingning ham bo‘ying yetib qoldi. Otang bilan menam ko‘zimiz ochiqligida to‘y ko‘rsak, nabitralarni erkalatsak... – uchalamiz qolganimizda onamning har doim takrorlaydigan gapidan yangi yilda ham quruq qolmaymiz. – Tengilarim allaqachon polaponlarini uchirib, uyasiga qo‘ndirgan. Men-chi? Mayli, Xudo bizni o‘g‘ildan qisdi. Ammo hech kimdan kam qilmay, papalab o‘stirgan guldek qizlarimni ham haligacha turmushga berolmadim.

Onam og‘ir “uh” tortadi. Singlim ko‘z ostidan menga najotkorona qarab oladi. Hammasi ayon.

Ko‘zim achishganini bahona qilib tashqariga chiqaman-u yo‘limda uchragan chelakni olib, suvga shoshilaman. Ko‘chaga bir tekisda to‘shalgan kumush qor parchalari ko‘zimni qamashtiradi. Atrofga ma’nosiz boqaman. Qadamlarim og‘irlashib boraveradi. O‘zimcha umrimni sarhisob qila boshlayman. “Yigirma yetti yil... Bugun yigirma yettinchi yilning so‘nggi lahzalarida yashayapman. Shuncha yil yashab, nimaga erishdim? Deyarli hech nimaga. Qishlog‘imizning kichkinagina maktabida oddiy muallimaman. Na oila qurdim, na obro‘ orttirdim! Avval o‘qiymen dedim. Keyin ko‘nglim noziklashdimi?! Singlimning yo‘lini to‘sib qolishimni hech o‘ylamabman...” Izg‘irin sovuq yuzlanimni chimchilab, jon-jonimdan o‘tib ketadi.

– Ha, Go‘zal, suvgami? – yonginamda turgan qishloq doshim Ra’noring yo‘g‘on tovushidan

cho‘chib tushaman. – Namuncha, kimni xayol surib kelyapsan?

Unga nimtabassum qilaman.

– Senam ichingdan pishgan. Rostini ayt, biror yangilik bormi?

– Qanaqa yangilik? O‘zim, shunchaki...

– Senda bo‘lmasa, mana, menda bor, – Ra’no ayyorona kulimsiraydi. – Abdulla chet eldag'i o‘qishini tugatib, kecha uyiga kelibdi.

– Yaxshi-ku! – hayratimni sezdirmaslik uchun ko‘zlarimni yerga qadayman. – Eshitmabman...

– Bir paytlar seni desa o‘lib qolardi. Endi o‘sha muhabbatdan biror nima qolganmikan? Shunday bo‘lsaku, oshig‘ing olchi! Yo chet eldag'i oqbilak oyimchalar hislarini to‘kib tashlaganmikin?

– Bu nima deganing? – jahlim chiqib, tez-tez yurib ketaman.

Ra’no tinmay nimalardir degancha ortimdan ergashadi. Hech bir gapi qulog‘imga kirmaydi. Yuzlarim lovullab ketgan. Faqat birgina so‘z yuragimda aks sado berayotganday: “Abdulla kelibdi...”

Ko‘ksimning bir burchagida qandaydir iliq tuyg‘u bosh ko‘taradi. U qaytibdi. Darvoqe, shuncha yil kimni kutdim, o‘zi? Kelgan sovchilarни nega qaytara-verdim? Nahot, uni kutgan bo‘lsam?! Axir, uni sevma-ganman-ku! Bu ikkilanishlarimga qo‘srimcha ichimda yana bir ovoz paydo bo‘ladi: “Shuncha yil chet davlat-

da o‘qidi. Balki, uylanib olgandir. Uylanmagan taqdirida ham, ota-onasi qishloqning yosh qizlaridan olib beradi. Yoshligida meni sevgan bo‘lsa, nima bo‘libdi? Bir havas bo‘lgan u!”

Xayollarim ostin-ustin bo‘lib ketadi. Chelagimni chaqqonlik bilan suvga to‘ldiraman-u hafsalasiz uygayta boshlayman.

— Assalomu alaykum, yaxshi qiz! — ro‘paramda qo‘qqisdan paydo bo‘lgan Abdullani ko‘rib, nafasim bo‘g‘zimga tiqiladi.

O‘sha nigoh, o‘sha qarash, o‘zgarmagan tabassum. Faqat biroz to‘lishibdi.

— Ya-yaxshimisiz? — tilim zo‘rg‘a aylanadi.

— O‘zing qandaysan? Eshitishimcha, haliyam erga tegmabsan. Bilardim, o‘zi, senga hech kim uylanmasligini...

— Nima-a? — fig‘onim falak bo‘ldi. Sovuqdan qotib qolgan qo‘llarim qaltirab ketganini payqadim.

— Hazil! Namuncha jahling burningning uchida turmasa. Haliyam esing kirmabdi sen qizni!

O‘zimni tahqirlangandek sezib qadamimni tezlatman.

— Mendan boshqa demoqchiydim. Mendan boshqa hech kimga tegmasligingni bilardim... — Uning so‘nggi gaplari qalbimga titroq soldi.

Singlim bilan archa bezatamiz. Onam o‘sha gapini takrorlayveradi: “Bu yilgi yangi yilimiz omadli kelsin.

Qizlarimning baxti ochilib, gulday oilaning bekasi, shirindan shakar nevaralarning onasi bo'lsin..." Deyarli har yili yuragim ezilib eshitadigan bu niyat hozirda negadir ruhimga chiroq yoqqanday bo'ladi.

"Ilohim, kelgusi *yil* bayramni bizning uyda birga nishonlaylik. Ikkinchisi yarning bo'lish baxtini menga sovg'a qilasan deb umid qilaman. Yangi *yiling* bilan, go'zalim! Abdulla!" Telefonimga kelgan xabardan yuragim hapriqib ketadi.

– Opa, qorbobo keldi! – singlim shoshib ovoz beradi.

Dasturxonga shirinlik torta turib qorboboni tanib qolaman. Men tomon qadalgan o'tli nigohda cheksiz mehr, samimi muhabbat va olamni poklikka burkayotgan qordek oppoq orzularni ko'rib, ruhim yengillashadi, ko'nglimga halovat inadi...

2015-yil

## **"SHUNCHA YO'LDAN NIMA ISTAB KELDING, NISO?"**

*Umidsizlik dargohi emas bu dargoh, qanday bo'lsang,  
shundayligingcha kelaver...*

**Jaloliddin RUMIY**

Hayot – qalbimizning aksi, ichimizning ko'rinishi. Biz hayot haqida fikr yuritar ekanmiz, xulosalar,

o‘zimiz uchun haqiqat deb hisoblagan bari gaplarimiz ko‘nglimizni aks etturarkan. Va mana shu vaqtning o‘zi umrimizning keyingi kuni uchun debocha bo‘larkan.

Bu hissiyot, hayotga muhabbat menda bolalikdan shakllangan desam adashmayman. Ancha xayolparast edim. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”dan boshlanib, qahramonlari murod-u maqsadiga yetib tugaguvchi ertaklarni doimiy o‘qirdim. Va hayotimiz ham xuddi mana shunday ketishiga qattiq ishonardim.

Bir kun maktabdan onamning uyiga (ota-onam ajrashib, boshqa-boshqa oila qurib ketishgach, tog‘amnikida, buvimning qo‘lida qolganman) bormoqchi bo‘ldim. Uzun tuproq yo‘ldan onamni sog‘inib ketib borar ekanman, yo‘lda bir uloqcha paydo bo‘ldi. Qiziqib qarab tursam, u men kelgan yo‘lga intilib ma‘rardi. “Bugun bozordan olib keluvdik, onasiga pulimiz yetmadi”, – dedi bir bola. O‘tirib, uloqchani quchoqladim. Uning bo‘ynida juft qo‘ng‘iroqchasi bor ekan, kipriklari uzunligidan bo‘ynimni qitiqlardi. U quchog‘imda ham onasi qolgan tomonga qarab tinimsiz ma‘rardi. “Onang keladi, uni topamiz”, – deya shivirladim qulog‘iga. Shu zayl biroz turib, keyin onamning uyiga ketdim. Ortidan ancha vaqtgacha mitti uloqchaning iztirobli ovozi eshitilib turdi.

Mana shu mening eng katta yolg‘onim edi. Qaytishda ham uloqcha haqida o‘yladim. Mening onam bor, qayerda yashashi aniq, yonimda doimiy bo‘lma-

sa-da, ko'rishib turamiz, uloqchaning onasini, ehtimol, allaqachon so'yib yuborishgandir degan vahima-ga o'ralashib qoldim. Men katta dengiz oldida narigi sohilga o'tolmay turgan qayiqdek dovdirardim. Ertaklarda bolalar ota-onalari bilan yashardi. Tiniqlash-dim. Keyin biroz tasavvurlarim o'zgardi. "Hayot ertak emas"...

Menga 18 yoshimda 1-guruh nogironligini berishdi. Ma'lumotim yo'q, ota-onam boshqa bolalari bilan. Bahaybat dunyoning oldida navqiron umrim ancha g'arib, ancha ko'rimsiz edi. "Taqdiring shu ekan, zekrksang, televizor ko'r, kitob o'qi", – deyishdi. Allaqa-yerdan nogironlar aravachasi ham yetib keldi. Unga qarash men uchun, 17 yil yugurib yurgan qiz uchun g'oyat og'riqli edi.

To'rt devor ichida o'ksinib o'tkazayotgan kunlarimning birida men o'zim, hayotim, kelajagim uchun eng muhim qarorni qabul qildim. Qanday orzular qilgan bo'lsam, hammasiga erisha olaman. Tik turrib bo'lmasa, aravachada o'tirib hammaning mehri ni qozonaman deb shirin orzu qillardim va doim jilmayib qo'yardim. Dunyoga shunchaki kelmaganimni ich-ichimdan his etganim sari g'ayratim jo'shaverdi.

Umid bilan qo'limga qalam oldim. To'rt yil tinimsiz yozdim. Yozganlarimni gazetalarning orqa muqovasidan tahririyat manzili deb ko'rsatilgan joyga yuboraverdim. Dastlabki ikki yil bari urinishlar-

im besamar ketdi, hech bir nashrda ijodiy ishlarmni bosishmadı. Menga yozishdan boshqa ovunch ham, ermak ham bo'lmaganı uchun yo'limda davom etdim. Asta-sekinlik bilan yozish borasida bilimlarga ega bo'ldim va yana ich-ichimdan juda katta vulqon otilishga shay turganini his etdim. Men tobora o'z yo'limni topib borayotgan edim. Garchi sog'lig'imda bior ijobiy o'zgarish sezilmasa-da, ijod olamiga harna ovundim. Maqolalarim bilan 2015-yil "Yurt kelajagi" respublika yoshlari tanlovida, keyin ketma-ket "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi", "Yuksak ma'naviyatli avlod" festivallarining viloyat bosqichida g'olib bo'ldim. Markaziy nashrlar bilan aloqa o'rnatdim, ustozlar mehri, do'stlar muhabbatidan ko'nglim yuksalaverdi. To'lib-toshib, uchib yoza boshladim.

Endi aravachaga ham munosabatim o'zgardi. Men unga shundoq qarab, katta zalga, katta odamlar oldiga, nufuzli mukofotni olishim uchun chiqishimiz kerak derdim ichimda.

Bir kuni o'tirgan joyimda oyog'imni sindirib oldim. Yurolmaydigan odamning oyog'i qanday sinishi mumkin deb hamma hayron. Hatto bu holdan o'zim ham taajjubda edim. Oyog'im singulik hech bir harakat qilmaganimni yaxshi bilardim. To'rt oy yana to'shakka mixlandim, yana Rumiy boboni sog'indim. "Rumiy bobo, hatto Sizning so'zlarингiz ham ko'nglimga

taskin berolmay qolayotgan lahzalarda qanday yashayin?” – derdim.

Shu bilan sog‘lig‘im yaxshi bo‘lmay qoldi. Kun-kundan og‘irlashaverdim.

Orqa miyamda o‘simga borligini bilardim, u endi qo’llarimga ham ta’sir o’tkazayotgan edi. Shunday og‘riqlar bo‘lar ekanki, hatto she’r ham, eng ilohiy sanalgan adabiyot ham ko‘nglingni yupatishga ojiz qolarkan. Negadir to‘kilgim keldi. Ustozimga xat yozar ekanman, ko‘zimdan yetti yillik iztirob oqardi. Maktubimdan so‘ng sog‘lig‘imga qaratilgan ishlar boshlanib ketdi, o‘zim kutganimdan ortiq e’tibor bo‘ldi. Bu orada I respublika yosh ijodkorlar forumida ishtirok etdim. Yil oxirida “Yilning eng yaxshi yosh ijodkori” yo‘nalishida “Yoshlar ittifoqi mukofoti”ni berishdi. “Xalqlar do’stligi” san’at saroyida ismim jaranglashi bilan ich-ichimdan gullab ketdim.

Salomatligimni tiklash uchun boshlangan xayriya aksiyasi o’tkazilayotgan vaqtarda Zomin seminarida ishtirok etdim. Ustozlarga qarab ularning nigohlarida ulkan xavrixohlikni ko‘rdim. Turkiya davlatida tekshiruvlardan o’tishim uchun kerakli mablag‘ yig‘ildi.

22-sentyabrda O‘zbekistondan uchib ketdik. Men ichida umid bilan birga ulkan xavotirda ketayotgan qizni sudrab borardim. Chunki shuncha yo‘l bosib boryapmiz, shuncha odam kuzatib turibdi, agar umid yo‘q deyishsa, buvimga nima deyman, uning ko‘zlar-

iga qanday qarayman derdim. "Sendan, O'zingdan keladigan hamma narsaga roziman, Sening tarozing hech qachon xato ishlamagan. Balki, meni Rumiy bobomni ko'rib kelish uchun jo'nata yotgandirsan?" – deb Allohga hasrat qilib boraverdim. "Faqat ichimda umid bor, umid bor-da, Xudoyim", – deyman. Yo'llar yana xayolimni chalkashtiradi.

Istanbulga ayni tunda qo'nganimiz va nihoyatda toliqqanimiz uchun bir kecha o'sha yerda tunab qolishga, ertasiga dengizni bir ko'rib, Anqaraga ketishga ahd qildik. Men qachonlardir faqat orzu qilgan dengiz sayohatimiz nihoyatda ko'ngilli o'tdi. Dengiz bo'yida baliq tanovul qilib, ko'm-ko'k va cheksiz osmon uzra uchib-qo'nayotgan chag'alaylarga qarab bu dunyo uchun men, mening yozganlarim zarradan zarra ekanini his etdim.

Biz uchta klinikada tekshiruvdan o'tdik. Birinchi klinikada: "Umid bor, operatsiya qilamiz, reabilitatsiyadan keyin oyoqqa turadi", – deyishdi. Boshim aylanib, yuragim titilib ketdi. Ikkinci klinikadagi professor shundoq yuzimga qarab: "Niso, shuncha yo'ldan nima istab kelding?" – dedi. Yana yuragim titildi. Bu safar boshqacha. "Demak, bu doktor umid yo'qligini aytish uchun gapni aylantiryapti", – deb o'yladim. "Shu ozgina, ozgina bo'lsayam ijobiy tomonga o'zgar sam bo'ldi", – dedim. "Unaqa ka-a-atta narsa so'ramayman", – dedim. Bu yetti yildan beri yurolmayotgan

qizning ilinji edi. Professor taajjubda jilmayib qo'ydi va umid borligini, faqat bu birdaniga bo'lmasligini aytdi. Operatsiya uch bosqichda o'tkazilishi, avval hayotimga xavf tug'dirayotgan o'simtani olib tashlash zarur ekanini bildim. Keyin noto'g'ri turgan suyaklarni to'g'irlab, ular orasidagi siqilgan nervlarni ochish kerak ekan. Agar o'simta olinmasa, qo'llar harakatini cheklash bilan birga ko'rish, gapirish faoliyatiga ham ta'sir o'tkazarkan. Operatsiyalardan so'ng oyoqlarimning kuchga kirishi uchun birmuncha muddat ketarkan. Operatsiya narxini eshitib biroz dovdiragan bo'lsam-da, qalbimdag'i umid undan ancha balandroq edi.

Yuragimni dast ko'tarib Rumiy bobodan suyunchi olishga bordim. Shundoq ostonada: "Rumiy bobo, men keldim", – dedim. Qabrlari boshida duo qilar ekanman, na hasrat qilgim keldi, na og'riqni his etdim. Maqbarada bir maromda sokin nay ovozi eshitilib turar ekan. Ba'zilar yerda o'tirib, ba'zilar devorga suyanib ikki qo'llarini duoga ochishgan. Turli millat va elat vakillariga qarab shuni angladimki, yet yuzidagi jamiki odamlarni bitta ko'ngil, orzu, umid degan tushunchalar birlashtirib turar ekan. Ko'nyada o'tgan har bir lahzam umrimning eng navqiron lahzasi bo'lib qoldi.

Shundoq qarasam, Xudoyimning tarozisi yana va yana to'ppa-to'g'ti ishlayapti. Agar men yotib qolmaganimda hech narsaga erisholmasdim, bir narsa yozolmasdim. Xudo menga dardni iste'dodimni yu-

zaga chiqarish uchun bergenligini his etyapman. Agar oyog‘im sinmaganida, men haligacha shundoq o‘ti-ravergan, davolanish harakatini ko‘rmagan bo‘lardim. O‘zi dard berdi, ammo mehribon, g‘amxo‘r oilani hamroh etdi. Shuncha yildan beri bu oilada yashab bitor marta nojo‘ya gap eshitmadim. Jiyanlarim o‘z opasidek, yangam o‘z bolasidek mehr berdi. Sabri uchun buvimga ta’zimdaman. Allohimga ming shukr.

Kelajak uchun bugundan rejalar tuzyapman.

Ijod o‘z yo‘lida davom etaveradi. Men bir markaz ochmoqchiman va unda notiq bo‘lib faoliyat yuritmoqchiman. Ruhan tushkunlikka tushgan, umidsiz insonlarning hayotiga nur olib kirmoqchiman. Tushgan pullar hisobiga bemorlarga ijtimoiy ko‘mak beraman. Markazning asosiy maqsadi – har bir kishiga baxtli va farovon hayotga munosib ekanini anglatish. Mana shu sinovlardan o‘tib olsam, men bosib o‘tgan yo‘l markazga keluvchilar uchun bir ishonch bo‘ladi. Meni dekabr oyining o‘zida uchta operatsiya kutib turibdi. Hammasini uddalashimga ishongim kelyapti.

Bugun tushimga huuv o‘sha uloqcha kiribdi. Bo‘ynida o‘sha qo‘shaloq qo‘ng‘iroqcha. Onasi qolib ketgan yo‘lga qarab javdirab ma‘rarmish. Men uni ovutarmishman: “Onang keladi, hozir keladi...” Uloqcha, uning onasi, mening onam va men... Hayot ertak emas deyishga haqsizman. Hayot har birimizga yangi imkoniyatlar, yangi umidlar eshigini har tongda ochar

ekan, biz o'z xatti-harakatlarimiz, fe'l-atvorimiz va dunyoga munosabatimiz orqali yo'limizni tanlaymiz. Menga hech narsa kerak emas deyman o'zimga o'zim. Na obro', na shon-shuhrat. She'r nima, shoir kim?! Mukofotlar nima, o'zi, davralar, gullar, olqishlar, muhabbatlar...

Men shundoq tuproq yo'lda oyoqyalang yurishni juda-juda sog'indim...

# Xotiralar

## BAXTINISO YODI

Sen bor eding – YURARDIK shodon,  
Sen bor eding – CHOPARDIK masrur.  
Ko'nglimizga zulmat cho'kkon on  
Yoritardi ko'zingdagi nur.

Va...

Sen ketding shoshib, oshiqib,  
Ketding tongni shomga yo'g'irib.  
Ey Xudoning ma'sum oshig'i,  
Haq qoshiga bording YUGURIB!

Senga yeta olmasmiz, beshak,  
Ishqda senga teng kelmak mahol:  
Yuray desak, yuguray desak,  
Tosh qotganmiz – oyog'imiz shol...

**Nodir JONUZOQ**

## BAXTNING ISI

Baxtiniso Mahmudovaning maqolalari, she'rlari "Bekajon" gazetasi orqali ko'pchilikka tanish edi. Ya-qindagina chop etilgan "Hovuchdagi yurak" to'plami ijodkor qizimizning o'z muxlislariga taqdim etgan betakror tuhfasi bo'ldi. Kitobni o'qiganimda shunday xulosaga keldimki, Baxtinisoning mashqlaridan baxtning isi keladi, baxtga yor etguvchi Vatanning bo'yları

ko‘rinadi. Shoira qalamiga kuch bergan tuyg‘ular ortidan ergashgingiz keladi. She‘r aytish, so‘zlarni itoat qildirish baxti hammaga ham nasib etavermaydi. Baxtinisoning baxti shundaki, o‘jar va sirli so‘zlar uning aytganini qiladi, qalamidan go‘zal misralar bo‘lib to‘kilaveradi. Bu kuch uni aslo tark etmasin!

**Tohir MALIK,**  
*O‘zbekiston xalq yozuvchisi*

## **HAYOTGA MUHABBAT**

“...Baxtinisoning she’rlarini o‘qib chiqdim-ularagi mahzun tuyg‘ulardan osonlikcha qutulolmay tursam-da, yuragim shodlandi. Yoshlikda bo‘ladigan hali notamom satrlariga qaramay, hayotga bo‘lmish buyuk muhabbat tuyg‘ulari bor edi bu she’rlarda. Yana bu she’rlarda men sog‘ingan go‘zal, shoirona hikmatlar bor edi. Hali yosh qalbning Buyuk tajribasi bor edi. Rahmatli dadamning “Dard odamni ulg‘aytiradi” degan gapini esladim. Baxtiniso she’rlarini qayta-qayta o‘qidim-u ularni tezroq siz bilan baham ko‘rgim keldi. Mehribon Ollohdan Baxtiniso dardiga davo berishini so‘rayman. Omin, Ollohu Akbar”.

**Xurshid DAVRON,**  
*O‘zbekiston xalq shoiri*

## UCH ROMAN

Baxtiniso!

Salom. Barcha yaqinlaringizga salom.

Yuborgan nasr namunalarini o'qidim. Hali she'rlar ringizni o'qiy olmadim. O'qimasam ham, ularning ajoyib ekanini bilaman. O'qib chiqqach yana sizga yozaman. Hozir esa o'zingiz iymanibgina "gazetlarga yuborganman" degan nasringiz haqida.

Baxtiniso, men sizni maqtayotganim ham, ko'nglingizni ko'tarish uchun aytayotganim ham yo'q. Siz tug'ma yozuvchi, ijodkorsiz, allaqachon yozuvchi bo'lib ulgurgansiz. Albatta, hali malaka, texnika kam. Ana shu narsa sezilyapti. Malaka ham sizning irodangizga, albatta, bo'ysunadi.

O'qiganlarimda men ikkita katta roman ko'rdim. Faqat buni hali malakasi to'la shakllanmagan, yozuvchilikning o'ziga xos ayyorliklaridan uzoq bo'lgan Baxtiniso har tomonga, ko'nglining har burchagiga sochib yuborgan va ana shu sochmalarni menga yuborgan. Aslida, bu sochmalar ikkita yirik romanning xamirturushi, xamirturushi ham emas, ildizi, urug'i. Uni sabot bilan ko'kartirish qolgan, xolos.

Birinchi romanni shartli ravishda "Yetim uloq" deb nomlasak, "Xudo-xudo" o'ynagan, otasining, onasining izidan borgan qizning 17 yoshgacha bo'lgan qalb kechinmalari. Bu romanning qahramonlari momo, ona, yetim uloq, ona, ota, yanga, tog'a, dugonalar. 17

yoshgacha kirgan barcha xotira, barcha kechinmalar, hissiyat, boshidan o'tkazganlar adabiyot uchun juda kerak. Bu tayyor roman. Psixologik roman. Bunday romanni Marsel Prust yozgan. U yetti kitobdan iborat. "Zavol topgan vaqt izidan" deb nomlanadi. Prust ijodi bilan tanasini qaqshatgan, umidsiz deb tashxis qo'yilgan kasallikni ijod bilan yenggan, uning ustidan g'alaba qilgan. Yettita roman ham dunyo adabiyotining durdonasi sanaladi. Yozganlaringiz uning romanini eslatdi... Afsuski, o'zbekchaga tarjima qilinmagan. Sizga o'zbekona "prustlik" tilayman.

Ikkinchisi kasallik boshlanishidan toki turkiyalik professorning ko'rigigacha, balkim, opreatsiya kungi gachadir?! Bu romanni "Rumiy bobo, men keldim!" deb nomlasak ham bo'ladi. Bu roman kasallikning boshlanishidan tortib Rumiy xoki poyigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ehtimol, roman hazrat Rumiy maqbarasini ziyorat qilib turgan joydan boshlanib, yana shu yerda tugar? Ana shu lahzalarga siz ichingizdag'i dard, alam, og'riq, umid, ilinj, izard, tushkunlik, matonat – hammasini yozing. Har ikki romanning Bosh Qahramoni, albatta, Baxtiniso bo'ladi va u albatta kasallik ustidan g'olib keladi. O'zbek adabiyotida yangi roman davrini boshlab beradi.

Siz odamlarga ruhiy dalda va madad beradi-gan markaz ochish orzungiz haqida yozibsiz. Iloyo, oching, shu kunlarga yetkazsin. Lekin mana shu ikki

roman markaz ochilmasdan ham markaz vazifasini o'tay boshlaydi. Bundan tashqari, sizda tabiiy dunyo adabiyotida "поток сознание" deb ataladigan "shuur oqimi", ya'ni butun boshli kechinmalar va hissiyotlar oqimi bor. Faqat shu oqimni tartibga solib, ichingizdagini qog'ozga tortib chiqarsangiz, uni badiiyat nuqtayi nazaridan tartibga solsangiz bo'ldi. Bu tom ma'noda o'zbek adabiyoti uchun yangi romanlar, yangi qahramonlar, yangi bosqich bo'ladi.

Menga yana uchinchi roman ham ko'rinyapti – Baxtinisoning uchta operatsiyasidan keyingi roman. Xudo xohlasa, bu romanning yo'naliшини o'zingiz tanlab, nomni ham o'zingiz qo'yasiz.

O'qiganlarim haqida mening muxtasar fikrim shu.

**Nazar ESHONQUL**

## BAXTINISOGA MAKTUB

Baxtiniso!

Aylanib ketay sendan! Nima qilib qo'yding, a?

"Men, yomg'ir va Xudo" deb nomlangan badiangdan yuraklarim qon bo'ldi, singlim! "Nima yozganiningni bilmay" yozib qo'yan satrlaringdan jigarlarim ezildi. To'g'risi, buyuk shoira Halima Ahmad qizi "Kitob dunyosi"da sendan "Menga Quyoshni yubor" deb iltijo qilganida kim ekan o'sha munavvara deb ajab-

langandim. She'rlaringni o'qigach, sening ko'nglingda haqiqatan juda nurli, benihoya saxiy Quyoshli olam borligiga ishondim. Qalbing quyoshlariga havaslar qildim.

To'g'ri, men sening "og'riqlar" ingni so'z san'atkorlari Xurshid Davron, Eshqobil Shukur, Halima Ahmad, Shuhrat Daryodan so'ngroq fahm etdim. Shunday bo'lsa ham... ko'nglingga olmagin-u... ko'zlarim beixtiyor quvnab ketdi. Va o'zimni o'zim adabiyotimizga shunday nurli og'riq kirib kelgani bilan tabrikladim. Bu og'riq nasrimizga, she'riyatimizga muborak bo'lsin dedim.

Qo'li anchadan buyon tuzukroq pul ko'rмаган, mayda "chaqa" larga o'рганиб qolgan gadoning kaf-tiga birdan o'n ming yoki ellik mingtalikni tutqazib ketishsa, bilasanmi, nima bo'ladi? Bilmaysan-da! U gado endi devona bo'p qoladi. Sening "quyoshchalar-ring" dan bahra olgach, yombi topib olgan devonaday bo'lib yuribman. Va sening jismoniy og'riqlaringga shifolar, qalbingdagi she'riyat dardiga esa safolar tilayapman.

Sen "baxt bo'lmasang ham, Baxtinisosan". Baxting shundaki, "Qulab tushgan yiqlimassan, yiqlimas-san..." "Bag'ringni huvillatib ketayotgan fursatlar" ni yombi tuyg'ularga, "ichingdagi huuv qaltiroqlar" ni mungli va go'zal misralarga aylanturib, ijod ahlining havaslarini keltirib yasha! O'zing aytganingday:

“Bir kunlar keladi. Tanho sen uchun hatto xayol bog'ing bo'ladi so'lim”. Faqat sen hozircha cho'kib ketmagil, Faqat sen hozircha yig'lama, “singlim”!

*Mehr bilan akang* **Abdunabi BOYQO'ZIYEV.**

## MUNDARIJA

### SHE'RLAR

"Otamning ko'zidan..." .....	4
Ona.....	4
Vatan .....	5
Qishlog'im.....	6
Bahorga.....	7
Yomg'ir.....	8
Aziz insonim .....	9
Sog'inch .....	10
Sizni degan .....	11
Tong.....	12
Manzara .....	13
"Mana, ketayapman..." .....	13
Kuzga.....	14
Balki.....	14
Bilmam.....	16
Surat .....	16
Iltijo.....	18
"Kunlarim - aylana charxpalak..." .....	18
Najot.....	20
"Men ketaman..." .....	20
Siz kim demang .....	21
Rushana xolamga ikki she'r .....	23
"Yaxshiyam..." .....	25
Kunlarim.....	25
To'kilish baxti .....	27
Bolalik .....	27
Beshtosh.....	28
"Shamollar uchmoqda..." .....	30

“Dardlar keldi...” .....	31
Maktub.....	32
“Quyosh cho’ka boshlar...” .....	34
Mendan ranjima, dunyo .....	35
“Sen kelasan shamollarga ismim aytib...” .....	36
Masala .....	37
“Ketgim kelayapti bugun negadir...” .....	38
“Sayr qilging keladi...” .....	39
Alam qilmaydimi? .....	40
Hammasini bilaman.....	41
Noyabr.....	42
“Ketayapman ufqqa qarab...” .....	43
Epkin .....	44
“Dunyoning faromush rangidek...” .....	45
O’zimga qaytib .....	47
Dunyoning.....	48
“Men hozir gullayman...” .....	49
“Yaxshiman, shunchalik yaxshiman...” .....	50
Suratga .....	51
“Ko‘nglimda baxtlar bor, dardlar bor...” .....	52
Dilnozaga.....	53
Yomg‘irjon .....	54
Iltijo .....	55
“Omonmisan, baxtiyormisan?..” .....	56
“Ertaroq qayt...” .....	56
“Yillar kelar umr bilan qo’ltiqlashib...” .....	57
Men bilansan!.....	59
“Bu shamollar tinim bilmaydi...” .....	60
...dan so‘ng .....	61
“Sendan ketdim...” .....	61
“Agarda qaytmamasam...” .....	62

“Nastarinlar gulini to’ksa...”	62
“Bir go’zal qo’shiqlar kuylagim kelar...”	63
“Men – saharman, men – shomman...”	64
“Rangin tushlar ko’ring, azizim...”	66
“Mayli, bo’lganicha bo’lsin hammasi...”	66
“Ishqim bo’lak, ishqim o’zi safar...”	67
“Sen ketgan yo’llarga to’yib qarayman...”	67
“Men bariga ko’ndim...”	68
“Shunday sog’indimki bugun barini!”	69
Ijod	69
“Men Xizrga sado bersam ...”	70
Yurak	71
Va’da	72
Tasalli	73
“Fasllar almashinur...”	73
1-dekabr	74
“Borliq shovulladi tun bo’yi...”	75
“Sen buncha kechikding...”	75
“Yillar to’kaverdi ohorlarimni...”	76
Dala qo’riqchisiga	77
“Tolgay, O’zbekiston chindan jannatdir...”	79
“Men ko’p bor tingladim ohanglaringni.”	80
“Go’dak uxlamadi bu kecha...”	81
Ketyapman	82
“Shamollarga ergashdim, chopdim...”	82

## BADIALAR

Xudo va yig’i (turkum)	85
Odamlarning ko’zi	99
To’kilmagan tuyg’ular (Hikoya)	103
“Shuncha yo’ldan nima istab kelding, niso?”	107

## XOTIRALAR

- |  |     |
|--|-----|
| Nodir Jonuzoq. Baxtiniso yodi .....            | 117 |
| Tohir Malik. Baxtning isi.....                 | 117 |
| Xurshid Davron. Hayotga muhabbat.....          | 118 |
| Nazar Eshonqul. Uch roman.....                 | 119 |
| Abdunabi Boyqo'ziyev. Baxtini soga maktub..... | 121 |

10.200 e.

*Adabiy-badiiy nashr*

# Baxtiniso MAHMUDOVA

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyası: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108

Offset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma № 51

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>A</sup>-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: [info@akademnashr.uz](mailto:info@akademnashr.uz)

web: [www.akademnashr.uz](http://www.akademnashr.uz)

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyorolar ko'chasi 6-uy.



ISBN 978-9943-6



9 789943 635